

POKISTON BOSH VAZIRI O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif 25-fevral kuni rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi.

Ikki mamlakat xalqlari ni mustahkam tarixiy aloqalar bog‘lab tursa, bugungi rivojlangan davrdagi hamkorlik izchilligi barqaror va ishonchli bo‘ladi. O‘zbekiston va Pokistonni ana shunday rishtalar bir-biriga esh qiladi.

Bu rishtalar esa Buyuk ipak yo‘lining umumiy madaniy an‘analari kabi tarixiy manbalardan quvvat oladi.

Pokiston — Vatanimiz mustaqilligini birinчилardan bo‘lib tan olgan mamlakatlardan biri. Ikki davlatning mushtarak manfaatlarga asoslangan hamkorligi yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Toshkent shahri xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarilib, faxriy qorovul saf tortdi.

So‘ng Pokiston delegatsiyasi “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmon Mustaqillik monamenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asosida Pokiston delegatsiyasi vakillariga bu yerda aks ettirilgan siymolar va tarixiy voqealar mazmuni haqida batafsil ma‘lumot berildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 26-fevral kuni bo‘lib o‘tadi.

Bo‘ljak oliy darajadagi muzokaralar kun tartibidan O‘zbekiston — Pokiston strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashiladi.

Sammit yakunida Qo‘shma deklaratsiya va qator ikki tomonlama hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

INVESTITSIYA KO‘PAYTIRILSA, SANOAT VA IQTISODIYOT YAXSHILANIB, KAMBAG‘ALLIK QISQARADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-fevral kuni Sirdaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, ish o‘rinlari va investitsiyalarni ko‘paytirish bo‘yicha 2025-yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Keyingi yillarda Sirdaryoda energetika, qurilish, tadbirkorlik birmuncha rivojlandi. O‘tgan yili davlatimiz rahbarining Sayxunobod tumaniga tashrifi chog‘ida tomorqachilik va kichik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tajriba yaratildi.

Lekin tashabbuskorlik kamligi uchun sanoat, savdo va xizmatlar rivojlanishdan orqada qolib ketyapti. Xususan, Sirdaryoda xizmat ko‘rsatish sohasining respublikadagi ulushi eng past. Kambag‘allik darajasi 11 foizdan ko‘p. 22 ming nafar fuqaro ishsiz.

Bugun dunyoda iqtisodiy shartsharoitlar tez o‘zgarimoqda. Bunday vaziyatda izlanib, o‘rganib, ichki imkoniyatlarni to‘la ishga solgan hudud yutadi.

Shu maqsadda Sirdaryo viloyatida investitsiyalarni ko‘paytirib, sanoat va biznes-muhtini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish, shuningdek, viloyatning tranzit salohiyatidan unumli foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Masalan, qariyb 900 gektar yer maydonida sanoat zonalarini tashkil qilinishi mo‘ljallangan. Bu 5 milliard dollar investitsiyaga va 20 mingdan ortiq yangi ish o‘rniga zamin bo‘ladi.

Loyihalar Sirdaryo, Shirin, Boyovut, Xovos, Mirzaobod, Guliston, Oqoltin va Sardobada joylashadi.

Viloyat geografik jihatdan O‘zbekistonning markaziy qismida, bir nechta xalqaro avtomagistral kesishmasida joylashgan bo‘lib, bir kecha-kunduzda 311 mingta transport vositalari o‘tadi. Shunga ko‘ra, tadbirkorlar bu yo‘llar bo‘yida yuzlab savdo shoxobchalari ochishga tayyorligini bildirgan.

Umuman, 500 ming kvadrat metr savdo-servis maydoni tashkil etib, 50 ming odamning bandligini ta‘minlash imkoniyati bor.

Yer-suvi mo‘l bu hududda paxta, sholi, meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish uchun katta salohiyat bor. Shu bois, kartoshka, piyoz, maymunjon, qorag‘at va olcha maydonlari kengaytiriladi. Tomorqa, dala va kanallar chetidagi 38 ming gektarga qayta ishlovchi va eksportchilar birlashtiriladi.

8 ta tumandagi past rentabelli 25 ming gektar yer sholi yetishtirishga o‘tkaziladi. Sholichilik korxonalarini qo‘llab-quvvatlash uchun mahsulotning 50 foizini eksport qilishga ruxsat beriladi.

Viloyatda mingdan ziyod xonadonning qurilganiga ellik yildan

oshgan. Renovatsiya dasturi asosida ularning o‘rnida 15 ming xonadonli zamonaviy uy-joylar qurilishi ko‘zda tutilgan. Bu borada Marg‘ilon shahri, Do‘stlik tumanidagi ijobiy tajribalar o‘rganiladi.

Yangi xonadonlar arzon bo‘lishi uchun developerlarga soliqlar, bojxona imtiyozlari beriladi. Shuningdek, viloyatdagi yo‘l, elektr, uy-joy, irrigatsiya, bog‘cha, maktab va boshqa ijtimoiy obyektlarni yangilashga 100 million dollar yo‘naltiriladi.

Guliston shahrini uzluksiz ichimlik suvi bilan ta‘minlashga zarur mablag‘ ajratish va bu ishlarni 2025-yil 1-iyulga qadar yakunlash topshirildi. Shuningdek, Guliston va Shirin shaharlarida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida ularning hududini kengaytirish taklifi ma‘qullandi.

Umuman, bunday imkoniyatlar evaziga joriy yilda 2 milliard dollar investitsiya jalb etib, eksportni 500 million dollarga yetkazish vazifasi belgilandi. Buning natijasida 16 mingdan ziyod yangi ish o‘rni ochilishi, kambag‘allik darajasi 7,4 foizga tushishi qayd etildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

“IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI G‘ALABANING 80 YILLIGI” ESDALIK YUBILEY MEDALINI TA’SIS ETISH TO‘G‘RISIDA

2025-yil 9-mayda Xotira va qadrlash kuni o‘tkazilishi, shuningdek, Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi nishonlanishi munosabati bilan Vatan himoyasi yo‘lida mardonavor kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e‘tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatish, g‘alabaga bebaho hissa qo‘shgan O‘zbekiston fuqarolari — 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini munosib ravishda izzat-ikrom bilan sharaflash maqsadida:

1. 1941-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi sharafiga “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali ta‘sis etilsin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari — “1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun” va “Yaponiya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun” medallari bilan, urush yillarida jangovar xizmatlari uchun boshqa orden va medallar bilan mukofotlangan yoki urush qatnashchisi guvohnomasiga yoxud Vatan urushi nogironi

guvohnomasiga ega bo‘lgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilganlar, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi front orti mehnat faxriylari, shu jumladan, “1941-1945-yillar Ulug‘ Vatan urushidagi shavkatli mehnati uchun”, “Mehnatdagi jasorati uchun”, “Mehnatda o‘mak ko‘rsatganligi uchun” medallariga yoki 1941-1945-yillardagi urush davrida Qurolli Kuchlarda fuqaro shaxslarni erkin yollash bo‘yicha shtat lavozimida bo‘lganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga ega bo‘lgan mehnat fronti qatnashchilari mukofotlanadi.

3. Quyidagilar:

“Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

“Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali va tavsifi 2-ilovaga, uning guvohnomasi va tavsifi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va

moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan birgalikda ikki hafta muddatda “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali bilan mukofotlanishi lozim bo‘lgan 1941-1945-yillardagi urush faxriylari va nogironlarining, mehnat fronti qatnashchilarining aniq ro‘yxatini tuzib, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamas:

Markaziy bank va “Suvenir” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bilan birgalikda bir oy muddatda “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medallari va ularning guvohnomalari blanklari

belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tayyorlanishini ta‘minlasin;

ikki hafta muddatda esdalik yubiley medallarini topshirish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevraldagi “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi PF-24-son Farmonida nazarda tutilgan bir martalik pul mukofotlarini to‘lash tartibini belglasin.

6. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V.Maxmudov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 25-fevral

SH. MIRZIYOYEV

Farmonning 1-, 2-, 3-ilovalari 2-betda.

ELCHI Alisher TOXTAYEV:

“O‘ZBEKISTON VA POKISTON O‘RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR SO‘NGGI YILLARDA YANGI BOSQICHGA CHIQDI”

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif 25-fevral kuni ikki kunlik rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. “Dunyo” AA muxbiri tashrif arafasida mamlakatimizning Islomoboddagi elchisi Alisher To‘xtayev bilan O‘zbekiston — Pokiston ikki tomonlama munosabatlarining joriy holati va istiqbollari xususida suhbatlashdi.

— Pokiston Bosh vazirining O‘zbekistonga rasmiy tashrifi arafasida ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar qay holatda?

— O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi siyosiy aloqalar so‘nggi yillarda yangi bosqichga chiqdi. Davlat rahbarlarining o‘zaro tashriflari, strategik sheriklikka doir kelishuvlar

va hamkorlikka oid bayonotlar buni yaqqol tasdiqlaydi.

Ikki davlat BMT, SHHT, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham faol hamkorlik qilmoqda.

Har ikki mamlakat mintaqaviy xavfsizlik



va barqarorlikni ta‘minlash borasida aloqalarni kuchaytirish uchun o‘zlarining qat‘iy siyosiy irodasini namoyon etmoqda.

Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif janobi oliylarining yurtimizga tashrifi siyosiy muloqotlarni yanada mustahkamlashga, o‘zaro ishonch va

anglashuvni oshirishga xizmat qiladi. Tashrif doirasida muhim siyosiy hujjatlar imzolinishi kutilmoqda.

▶ Davomi 2-betda



ARMIYA VA TARBIYA

Sirojiddin SAYYID,
Oliy Majlis Senati a‘zosi,
O‘zbekiston xalq shoiri

Yangi O‘zbekistonning milliy armiyasida Shoirlar ham safdoshdir ta‘lim-tarbiyasida.

Ya‘ni har bir ijodkor, har yozuvchi yo adib — Sardor bo‘lmog‘i kerak bilimdon va botartib.

Har jangovar askarning biz ham teng-to‘shlarimiz, Qalam-la qurollangan qurolli kuchlarimiz.

Kim Temurxon boboning qudratini bilmagan? Bobo orzu qilgan, lek xayoliga kelmagan:

Kimki shubha qilgaydir dovrug‘i, kamoliga — “Temurbeklar maktabi” javobdir savoliga.

Inchunin, har bir zobit, har sipoh, har bayroqдор, Kechgan shonli janglardan bo‘lmog‘i shart xabardor.

Millat xoki poylarin tavof qilsa arziydi, “Zafarnoma” yaratmish mavlono Ali Yazdiy.

Davlati poydorlikning mangu guvohnomasi — “Zafarnoma” emas, bu — buyuk xalq shohnomasi.

O‘pgil, ey Yevropa sen, barmoq, uzuklaridan, Hanuz saboq olgaysan “Temur tuzuklari”dan.

Butun olam ahliga harbiy nomamdin mening, Jangnomam, kurashnomam — “Boburnoma”mdir mening.

Vatan — jon va tandadir, jon Vatan — jon va tandir, Vatanparvar insonlar jon chekib, jon tikkandir.

“Iyolu Vatan uzra to joni bor, — deb aytgan, Kishi harb etar toki imkoni bor”, deb aytgan,

Navoiy bobomizdan timsol keltirsam agar, Necha ming ko‘ngillarni uyg‘otmog‘i muqarrar.

Har shoir, har askarga qat‘iyat, shiddat kerak, Azm-u shijoat kerak, ilm-u ma‘rifat kerak.

Bunda har on asqotar aqlu fahmu farosat, Dunyoviy bilimlar ham matonat va sadoqat.

Bu qanday dilbar diyor, dil diyor, dildor diyor, Askarlari ham bedor, shoirilari ham bedor.

Ammo olam avzoyi — kecha-kunduz talotum, Boisin aytolmagay biror Alp yo Afotun.

Fitrat domla aytganday: Dunyo — kurash maydoni, Bir tomoni toshqinlar, yong‘indir bir tomoni.

Dunyoning dunyolikka qolmaganday holi ham, Qirg‘inbarot urushlar davom etar hali ham.

O‘tiz yetti millyon xalq, o‘tiz yetti millyon qalb, Qalbin, sen ham shu safda hushyor bo‘lgil, uyg‘on, qalq!

Toki xavfu xatar bor, shudir temir tarbiya: Har birmiz — posbonimiz, har birmiz — armiya.

Xalqu Vatan tashvishi — barchaning teng ishidir, Bugun har bezovta qalb — xavfsizlik kengashidir.

Shu boisdan tinchligu tinch osmoningga sharaf, Biz ezgulik tarafmiz, bizlar xalqimiz taraf.

Mening ham ko‘ksim to‘la g‘urur bilan iftixor: O‘zbek armiyasi bor! O‘zbek xalqi ham poydor.

O‘ylasam shul Vatanni — jimirlar ko‘ngillarim, Ey, mening sarbozlarim! Mening generallarim!

Shonli, shavkatli diyor, shu safda men ham borman, Ne baxtkim, saodatu baxtingga daxldorman.

Dunyoda Vatan tanho, xalqu millat yagona, Millat bedor bo‘lsa gar, tinch bo‘lgaydir zamona.

O‘tiz yetti millyon xalq, yana shuncha dil, yurak, Hushyor yashamoq kerak! Hushyor yashamoq kerak!

Millyon-millyon beshikda — chaqaloqlar lashkari, Tamshanib o‘smoqdadir — kelajakning askari.

Lashkar bexatar bo‘lmas, aytib ketgan bobolar, Onalar duo aylar, duo aylar momolar.

Ona yurt, ota makon, men ham bir askaringman, Uyg‘oq qalamim birlan xizmatkor navkaringman.

Angladimki: dunyoda na jon, na tan abadiy, Faqat Vatan abadiy, faqat Vatan abadiy.

Mening ham har bir she‘rim — hayot-u mamotimdir, Oliy Bosh Qo‘mondonga ichgan qasamyodimdir.



2025-yil 26-fevral, 40-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2025-yil 25-fevraldagi PF-32-son Farmoniga 1-ilova

“IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI G‘ALABANING 80 YILLIGI” ESDALIK YUBILEY MEDALI TO‘G‘RISIDA NIZOM

1. “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali (keyingi o‘rinlarda — esdalik yubiley medali) bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari “1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatani urushida Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun” va “Yaponiya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun” medallari bilan, urush yillarida jangovar xizmatlari uchun boshqa orden va medallar bilan mukofotlangan yoki urush qatnashchisi guvohnomasiga yoxud Vatani urushi nogironi guvohnomasiga ega bo‘lgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilganlar, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi front orti mehnat faxriylari, shu jumladan, “1941-1945-yillar Ulug‘ Vatani urushidagi shavkatli mehnati uchun”, “Mehnatdagi jasorati uchun”, “Mehnatda o‘rnak ko‘rsatganligi uchun” medallariga yoki 1941-1945-yillardagi urush davrida Qurolli Kuchlarda fuqaro shaxslarni erkin yollash bo‘yicha shtat lavozimida bo‘lganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga ega bo‘lgan mehnat fronti qatnashchilari mukofotlanadi.

2. Esdalik yubiley medalini topshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, ichki ishlar vaziri, favqulodda vaziyatlar vaziri, Davlat xavfsizlik xizmati raisi, Milliy gvardiya qo‘mondoni, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengisi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shahar hokimlari tomonidan mahalliy harbiy boshqaruv organlari, urush va mehnat faxriylari kengashlarining ishtirokida tatanali vaziyatda amalga oshiriladi.

Esdalik yubiley medali olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs 2025-yil 1-yanvardan so‘ng vafot etgan taqdirda, medal uning oila a‘zolariga topshiriladi.

3. Esdalik yubiley medallari bilan mukofotlanganlarga medal bilan birga belgilangan shakldagi guvohnoma topshiriladi.

Guvohnoma esdalik yubiley medalini topshiruvchi shaxs tomonidan imzolanadi.

4. Esdalik yubiley medali davlat mukofotlaridan keyin ko‘krakning chap tomoniga taqiladi.

“IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI G‘ALABANING 80 YILLIGI” ESDALIK YUBILEY MEDALINING TAVSIFI

“Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali (keyingi o‘rinlarda — medal) 0,25 mikron qalinlikdagi oltin qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi va diametri 34 millimetrlilik doira shaklida bo‘ladi.

Medalning old tomoni markazida quyosh nurlari fonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan barpo etilgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasidagi o‘zining ulkan jasorati va sabr-matoni bilan tarix sahifalariga muhrlangan Zulfiya Zokirova va uning frontdan qaytmagan besh o‘g‘li, sadoqatli kelinlari xotirasiga bag‘ishlangan “Matonat madhiyasi” monumenti kumush rangda hamda uning oldida Mangu olov tasviri zarhal rangda aks ettirilgan.

Monumentning chap va o‘ng tomonlarida dafna chambari joylashgan bo‘lib, uning quyi qismida yubiley yilini anglatuvchi “80” raqami yozilgan.

Medalning aylanasi bo‘ylab chetlari qabariq bo‘lgan doira ichida harflarining balandligi 2,5 millimetrlilik “IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI

G‘ALABANING” hamda “YILLIGI” so‘zlari joylashgan.

Medalning orqa tomonida, diametri 28 millimetr bo‘lgan aylananing ichida, ikki qatorda “XOTIRA — ABADIY”, “VATAN — MUQADDAS” yozuvlari, uning quyi qismida Ikkinchi jahon urushi tugagan yil va yubiley yilini anglatuvchi “1945-2025” raqamlari yozilgan. Aylananing tashqi tomonida quyosh nurlari shaklidagi chiziqlar joylashgan.

Yozuvlar qabariq shaklda va zarhallangan. Medalning qalinligi 3 millimetr.

Medal O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ranglaridagi yo‘l-yo‘l shoyi mato sirilgan besh burchakli qadag‘ich (kolodka)ga halqa va ilmoqcha yordamida ulanadi. Matoning eni 24 millimetr. Ko‘k, oq va yashil yo‘llar eni 7 millimetrdan, qizil yo‘llar eni 1,5 millimetr.

Qadag‘ichning balandligi 50 millimetr, eni 45 millimetr.

Qadag‘ichning orqa tomoniga medalni kiyimga taqib qo‘yish uchun to‘g‘nog‘ich ko‘rinishidagi moslama o‘rnatilgan.

“Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali

Old tomoni



Orqa tomoni



“IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI G‘ALABANING 80 YILLIGI” ESDALIK YUBILEY MEDALI GUVOHNOMASINING TAVSIFI

“Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80-yilligi” esdalik yubiley medali guvohnomasi (keyingi o‘rinlarda — guvohnoma) 175x125 millimetr o‘lchamdagi ko‘k rangli vinil bilan qoplangan muqovalik kitobcha shaklida bo‘ladi.

Guvohnomaning old tomoni (birinchi beti) yuqori chekkasidan 14 millimetr pastda, markazda “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI” (katta harflarda, “Times new Roman Bolt” shrifti, 12 kegl) so‘zlari, undan 10 millimetr pastda O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi joylashgan.

Undan 14 millimetr pastda uch qatorda “IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI”, “G‘ALABANING 80 YILLIGI”, “ESDALIK YUBILEY MEDALIGA” (katta harflarda, “Times new Roman Bolt” shrifti, 11 kegl) so‘zlari hamda undan 5 millimetr pastda “GUVOHNOMA” (katta harflarda, “Times new Roman Bolt” shrifti, 16 kegl) yozuvi joylashgan.

Yozuvlar tilla rangda aks ettirilgan.

Guvohnomaning ichki tomoni (ikkinchi va uchinchi betlari) “Tangir” tasviri tushirilgan och havorangda bo‘lib, ofset usulida chop etilgan.

Guvohnoma ichki tomonining chap qismi

(ikkinchi beti) markazida esdalik yubiley medalining asliga teng o‘lchamdagi rangli tasviri aks ettirilgan.


Guvohnomaning ichki o‘ng tomoni (uchinchi beti) yuqori chekkasidan 8 millimetr pastda, markazda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”, “2025-yil___fevraldagi”, “Farmoniga muvofiq” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 10 kegl) so‘zlari yozilgan va mukofotlangan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismini qayd etish uchun oralig‘i 8 millimetrlilik uchta chiziqli tortilgan.

Pastki chiziqdan quyida, markazda “IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI”, “G‘ALABANING 80 YILLIGI” (katta harflarda, ko‘k rangda, “Times new Roman Bolt” shrifti, 11 kegl), “esdalik yubiley medali bilan taqdirlandi” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 10 kegl) so‘zlari yozilgan.

Undan 6 millimetr pastda, markazda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti”, “nomidan medal” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 10 kegl) yozuvi aks ettirilgan va medalni topshirgan shaxsning lavozimi va imzosini qayd etish uchun chiziqli tortilgan.

Uning quyi qismida “tomonidan”, “20___yil ___da”, “topshirildi” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 10 kegl) yozuvlari aks ettirilgan.

“Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali guvohnomasi



ELCHI Alisher TOXTAYEV:

“O‘ZBEKISTON VA POKISTON O‘RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR SO‘NGGI YILLARDA YANGI BOSQICHGA CHIQDI”

Boshlanishi 1-betda

— Savdo-iqtisodiy sohadagi munosabatlar qanday rivojlanmoqda?

— So‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi barqaror o‘smoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra tovar ayirib olish hajmi 404 million AQSH dollaridan oshdi.

Hozirgi kunda tomonlar o‘zaro savdo hajmini yanada oshirish, yaqin yillarda 1 milliard dollarlik marraga erishish, sanoat kooperatsiyasini jadallashtirishga qaratilgan qo‘shma choralar ustida faol ishlamoqda. Har ikki mamlakat oziq-ovqat, to‘qimachilik, elektrotexnika mahsulotlari eksporti va import tarkibini kengaytirish bo‘yicha aniq tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Pokistonga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmini oshirish, ayniqsa, meva-sabzavot, don va to‘qimachilik mahsulotlari yetkazib berishga qiziqish bildirmoqda. Shu bilan birga, Pokistonning farmatsevtika, tekstil, qurilish materiallari va axborot texnologiyalari sohasidagi imkoniyatlari O‘zbekiston bozori uchun ham muhim ahamiyatga ega.

To‘qimachilik sohasida yirik qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Kuchli tomonlarimizni birlashtirish jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ilg‘or texnologiyalar almashinuvi, mahsulotlarni qayta ishlash bo‘yicha qo‘shma loyihalar, shuningdek, meva-sabzavot va don mahsulotlarini eksport qilish hajmini oshirish uchun ulkan salohiyatni ko‘ryapmiz. Davlatlarimiz oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash va yangi bozorlarga birgalikda chiqish ustida hamkorlik qilishi mumkin.

O‘zbekiston va Pokiston axborot texnologiyalari sohasini ham jadal rivojlantirmoqda. Biz IT-markazlar yaratish, qo‘shma ta‘lim dasturlari va raqamlashtirish loyihalarini ustida ishlashimiz, shuningdek, xizmatlarni autorsoring qilish kabi sohalarga e‘tibor qaratishimiz mumkin. Bu esa iqtisodiyotimiz uchun katta istiqbolarni ochadi.

— Savdo-iqtisodiy sohada qanday istiqbolli loyihalar rejalashtirilgan?

— Karachi porti orqali tranzit savdosini rivojlantirish, shuningdek, qo‘shma investitsiya fondlari tuzish rejalari bor. Bu ikki davlat o‘rtasidagi tijorat aloqalarini kuchaytiradi.

Iqtisodiy diplomatiya yo‘nalishida infratuzilmani yaxshilash, ikki davlat

hududlarida logistika markazlarini barpo etish, savdo uylarini ochish va sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, Toshkent va Lahorda o‘tkazilgan “Made in Pakistan” va “Made in Uzbekistan” milliy sanoat ko‘rgazmlari tajribasini kelgusida ham davom ettirish, namoyish etiladigan mahsulotlar sonini oshirish rejalashtirilmoqda.

Ikki davlat tadbirkorlari ishtirokida biznes-forumlar tashkil etish orqali yangi investitsion loyihalar va shartnomalar imzolashiga zamin yaratilayapti.

O‘zbekiston va Pokistonning mutasaddi vazirlik va idoralar bilan Tranzit savdo hamda Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimlarning bandlarini to‘liq ishga solish, imtiyoz berilgan mahsulotlar sonini ko‘paytirish orqali o‘zaro savdo-sotiq hajmini oshirish, tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishi uchun qulay sharoit yaratish ustida ishlayapmiz.

Shuningdek, ikki davlat hududlari, savdo-sanoat palatalari, biznes doiralari o‘rtasida bevosita va yaqin hamkorlik o‘rnatish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

— O‘zaro savdo hamda investitsiyalarni rivojlantirishda O‘zbekiston va Pokiston savdo-sanoat palatalarining o‘rni qanday?

— Ikki davlat savdo-sanoat palatalari munosabatlari, biznes hamjamiyatlari o‘rtasidagi mavjud hamkorlik mexanizmlari o‘zaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash uchun katta imkoniyatlarni ochib bermoqda. Savdo-sanoat palatalari o‘zaro biznes aloqalarni osonlashtirish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda asosiy vositachi bo‘lishi mumkin.

Qo‘shma biznes platformalari va maxsus qo‘mitalarni yaratish tadbirkorlar uchun ishbilarmonlik formulari, ko‘rgazmalar va uchrashuvlarni tashkil etishni yengillashtiradi. Bu, o‘z navbatida, ikki mamlakat tadbirkorlariga hamkorlarni topish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda yordam beradi.

— Ikklada davlat infratuzilmani rivojlantirish va energetika sohasidagi investitsiyalarni qanday rag‘batlantirishi mumkin?

— Mamlakatlarimiz strategik ahamiyatga ega infratuzilma va energetika sohaslarida investitsiyalarni rivojlantirish uchun sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirish, qulay investitsiyaviy muhit yaratish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish orqali hamkorlikni kengaytirishi mumkin.

Avtomobil va temir yo‘llari, logistika markazlari va yuk terminallariga qaratilgan



2025-yil 3-yanvar kuni Karachi shahrida O‘zbekiston — Pokiston madaniyat uyi ochildi. U mamlakatlarimiz o‘rtasida madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash uchun muhim platformaga aylanadi. Markaz o‘zbek madaniyati, san‘ati, tili va an‘analarini faol targ‘ib qilib, turli tadbirlarni tashkil qiladi. Shuningdek, u ikki xalq o‘rtasida o‘zaro anglashuv va do‘stlikni chuqurlashtirishga xizmat qiladigan dastur va loyihalar uchun maydon vazifasini o‘taydi.

qo‘shma investitsiyalar savdo rivojiga, iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Energetika sohasi ham istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Biz qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalari, gidroenergetika va gaz infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalarda hamkorlik qilishimiz mumkin. Ushbu qo‘shma tashabbuslar energetika xavfsizligini ta‘minlash bilan birga barqaror energiya manbalari o‘tishni jadallashtiradi.

— O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida qanday madaniy almashinuv dasturlari yoki tashabbuslar ustida ish olib borilmoqda?

— Mamlakatlarimiz o‘rtasida madaniy almashinuvni chuqurlashtirishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni ilgari surishni rejalashtiryapmiz. Xususan, quyidagi yo‘nalishlarda faol ish olib borilmoqda:

— Pokistonda O‘zbekistonning boy madaniy merosini namoyon qiladigan madaniy festivallar, san‘at, fotografiya, hunarmandchilik va an‘anaviy musiqa ko‘rgazmalarini o‘tkazish;

— talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi dasturlarini ishlab chiqish hamda qo‘llab-quvvatlash, universitetlar o‘rtasida akademik aloqalarni mustahkamlash;

— mamlakatlarimizning tarixiy merosini targ‘ib qiluvchi qo‘shma turistik dasturlar va sayohat yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

— teatr va kino sohasida qo‘shma ijodiy loyihalarni amalga oshirish.

Bundan tashqari, ikki mamlakatda madaniyat markazlarini ochish umumiy tarixiy va madaniy qadriyatlarini targ‘ib qilishning samarali usuli deb hisoblaymiz.

— O‘tgan yili noyabr oyidan boshlab “Uzbekistan Airways” har juma kuni “Toshkent — Lahor” yo‘nalishi bo‘yicha doimiy aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘ydi. To‘g‘ridan to‘g‘ri reyslar transport aloqalarini yaxshilashga, sayohat vaqtlarini qisqartirishga va sayyohlar uchun qulaylik yaratishga xizmat qilyapti. Shuningdek, bu ishbilarmon doiralarni o‘rtasida savdo, investitsiya va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Ushbu imkoniyatlarni to‘laqonli ishga solish uchun mutasaddi vazirlik va sayyohlik kompaniyalari, turistik operatorlar bilan hamkorlikda turizm, jumladan, ziyorat turizmini birgalikda targ‘ib qilish maqsadida mamlakatlarimiz tarixiy obidalarini qamrab olgan, mustarak madaniy qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishtiruvchi mavzuli turistik marshrutlarni ishlab chiqish ustida ishlar faol davom etmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro sayyohlik ko‘rgazmalarida hamkorlik qilish orqali mamlakatlarimizning jahon turistik bozorida o‘rni yanada mustahkamlashga intilyapmiz.

Ishonchli komilki, viza tartiblarini soddalashtirish va to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar sonining oshirilishi ikki qardosh mamlakat o‘rtasidagi sayyohlar oqimini oshirishga va madaniy-gumanitar aloqalar mustahkamlanishiga salmoqli ta‘sir ko‘rsatadi.

— O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni chuqurlashtirishda xalq diplomatiyasining o‘rnini qanday baholaysiz?

— Xalq diplomatiyasi va odamlar o‘rtasidagi almashinuvlar mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik tashabbuslarida muhim o‘rin tutadi. Bunday hamkorlik shakllari xalqlarimiz o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatishga yordam beradi.

Bu esa o‘zaro anglashuv, ishonch va ikki qardosh xalq o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday munosabatlar o‘zaro hurmat va

ochiqlik muhitini yaratadi. Natijada turli sohalarda — biznes va ta‘limdan tortib, madaniyat, yirik qo‘shma infratuzilma loyihalarigacha — ikki tomonlama sheriklikni rivojlanishiga jiddiy turki beradi.

Xalq diplomatiyasi instrumentlari ikki mamlakat fuqarolariga bevosita muloqot qilish imkonini beradi, xalqlarimiz o‘rtasida mustahkam rishtalarni shakllantiradi. Bu jamiyatda shakllanib qolgan eski stereotiplarni bartaraf etish, do‘stlikni mustahkamlash va barcha darajalarda hamkorlikni rivojlantiradi.

Shuningdek, bunday almashinuvlar shaxsiy va kasbiy aloqalar tarmog‘ini yaratish, inson kapitali rivojiga hissa qo‘shish va mamlakatlarimiz o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu o‘zaro munosabatlarni uzoq muddatlarda rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, ushbu dasturlarda qatnashgan insonlar madaniyatlar o‘rtasida “ko‘prik” vazifasini bajaradi, o‘zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytirishga hissa qo‘shadi.

— Kelgusida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish istiqbollari bilan o‘rtaloqlashganz.

— O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish maqsadida savdo-iqtisodiy, bank-moliya, transport-logistika va madaniy-gumanitar yo‘nalishlarda bir qator qo‘shma tadbir hamda loyihalarni amalga oshirishni o‘z ish rejamizga kiritgannmiz.

Xususan, ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanmasini oshirish, o‘zaro savdoni rag‘batlantirish maqsadida Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim doirasidagi mahsulotlar ro‘yxatini kengaytirish hamda banklararo to‘lovlarini takomillashtirish bo‘yicha muzokaralar davom etyapti. Bu bojxona to‘lovlarini stavkalarini pasaytirish va o‘zaro savdo munosabatlarni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yirik transport-logistika kompaniyalari bilan hamkorlikda yuklarni tez va qulay tashish marshrutlarini diversifikatsiya qilish, bojxona jarayonlarini optimallashtirish masalalari ishlab chiqilmoqda.

Ikki mamlakat hududida bir qator madaniy tadbirlar, festivallar, ko‘rgazmalar tashkil etish kun tartibimizga kiritilgan. Sohaviy tashkilotlar bilan yangi va qiziqarli sayyohlik dasturlari shakllantirilmoqda.

O‘zbekiston va Pokiston oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi akademik aloqalarni kengaytirish, ta‘lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va talabalar almashinuvini faollashtirish borasida ham kelishuvlarga erishilgan. Hozirda ularning implementatsiyasi bo‘yicha ishlar davom etmoqda.

— Alisher Hakimovich, suhbatga vaqt ajratganingiz uchun minnatdorlik bildiramiz. — Katta rahmat.

“Dunyo” AA
Islomobod



“Yashil makon” umummilliy harakati

KO'KARGAN HAR TUP NIHOL HAYOT UCHUN QALQON BO'LADI



“

MUTAXASSISLAR MANZARALI DARAXT EKILGAN BOG'DA SAYR QILISH BIR NECHA TURDAGI DORI VOSITALARINING O'RNINI BOSISHI MUMKINLIGINI QAYD ETADI. SHU BOIS, OTA-BOBOLARIMIZ DARAXTNING SOYASI JONGA, MEVASI TANGA DARMON DEYA E'ZOZLAGAN. “BIRNI KESSANG, O'NNI EK”, DEB TABIATNI ASRASHNI, YARATUVCHILIKNI KENG TARG'IB ETGAN.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

O'lkamizda bahor nasimi esa boshladi. Garchi izg'irin ko'klamga o'r'in bo'shatib berishga shoshilmayotgan bo'lsa-da, barcha mavjudotlar — har bir giyoh, har maysada yasharish, yangilanish umidi barq uradi. Bunday lahzalarda ota-bobolarimiz azaldan tabiat bag'riga oshiqib, tevarak-atrofni obodonlashtirish, ona zaminga go'zallik va husnu tarovat baxsh etishga intilgan.

Shu jarayonda xalqimizning bebaho tafakkur tarzi, orzu-umidlari, kelajakka intilishini namoyon etuvchi ko'plab egzu qadriyatlar shakllangan. Bu bebaho meros bugun ham



barhayot yashamoqda va kishilik jamiyati taraqqiyotida o'zligini namoyon etmoqda. Yangilanish va yasharish bayrami — Navro'zi olam va hashar bilan bog'liq egzu an'analar bunga misol.

Ayniqsa, Prezidentimizning shu yil 21-fevraldagi “2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarorida bu boradagi ishlar rivojiga qaratilgan ko'lamdor vazifalar belgilab berilgani ayni muddao bo'ldi. Jumladan, Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan barcha tadbirlar milliy qadriyat va an'analarimiz hamda bugungi islohotlarimizning ma'no-mohiyatiga mos holda xukmsal darajada tashkil etiladi. Umumxalq bayrami mamlakatimizda “Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'zi!” degan bosh g'oya asosida sayillar shaklida yuqori saviyada keng nishonlanadi.

Qarorga ko'ra, bu yilgi Navro'z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanishi inobatga olinib, keksa avlod vakillari, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash choralari ko'riladi. “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlari kiritilgan va ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olinadi, ular uchun bayram dasturxonini yoziladi hamda turli xayriya tadbirlari o'tkaziladi.

Qarorning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, “Yashil makon” umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, bayram arafasida barcha hududlarda, ko'cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish aksiyalari, umumxalq hasharlarini o'tkazish vazifasi belgilangan.

Bugun global ekologik muammolar tobora chuqurlashib, tabiatga, alaloqibat insoniyatga salbiy ta'siri, zarari ortib bormoqda. E'tiborlisi, yurtimizda ushbu muammolar yechimiga qaratilgan qator yangi va xayrli tashabbuslar hayotimizga chuqur kirib kelmoqda. “Yashil makon” umummilliy loyihasi shulardan biri.

2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturida bu xayrli ishlarni izchil davom ettirish bilan bir qatorda tabiatni asrash, ekologik muvozanatni barqarorlashtirish va “yashil” rivojlanishga yo'naltirilgan ko'plab muhim tashabbus va g'oyalar, chora-tadbirlar belgilangan.

Jumladan, 2025-yil bahor-kuz mavsumida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxt, xonadonlar va ichki ko'chalarga gul va qalamchalar ekish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Unga asosan, umummilliy dastur doirasida bahorda 125 million va kuzda 75 million tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlari hamda qalamchalarini ekish rejalashtirilgan.

Tabiatni yashillikka burkashda o'rmonlarning o'rni beqiyos. Shu bois, bu yilgi davlat dasturida o'rmon bilan qoplangan maydonlarni 4,1 million gektarga yetkazish va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 14,5 foizgacha kengaytirish ko'zda tutilgan. Buning uchun o'rmon xo'jaliklarida 123 million tup nihol va ko'chat yetishtiriladi. Ko'chatchilikni rivojlantirish

— Maqsadimiz faqat o'rmonlarni tiklash emas, balki ulardan foydalanish va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda innovatsion va barqaror yo'llarni topishdir, — deydi O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori Nurillo Maxsumov. — Olimlarimiz va yosh tadqiqotchilar ilmiy-amaliy loyihalarni hayotga tatbiq etishda ana shu masalalarni e'tiborga olmoqda. Xususan, o'rmonlarni kengaytirishda har bir hududning tuproq-iqlim sharoitiga mos, qurg'oqchilik, suvsizlik va sho'rga chidamli daraxt va buta turlari tanlanadi.

Yashillikka tezroq hissa qo'shishda yaproq bargli daraxtlarning o'rmi katta. Ko'kalamzorlashtirish ishlarni bajarishda shu jihatlariga alohida e'tibor qaratilyapti. Qolaversa, ekilgan ko'chat va qalamchalar to'liq unishi, rivojlanishi uchun ekishdan oldin va keyin agrotexnik tadbirlarni tashkil etish, nihollarni to'g'ri parvarishlash, o'z vaqtida sug'orish zarur. An'anaviydan tomchilatib sug'orish tizimiga o'tish ham suvni tejashning muhim omili. Mutaxassislar joylarga chiqib, o'rmonchilar bilan hamkorlik ishlari ana shunday ilmiy tavsiyalarni keng targ'ib etmoqda. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini tanlashda ham bugunning talabidan kelib chiqib, eng ustuvor masalalar inobatga olinmoqda.

Yurtimizda sug'orilmaydigan lalmi yer ancha hududni egallaydi. Undan samarali foydalanish borasidagi tadqiqotlar natijasida xandon pistaning lalmi yerda o'sishga moslashgan 13 navi yaratildi. Tadqiqotlar jarayonida bu navlarning mintaqamiz iqlim sharoitiga mosligi aniqlandi. Xususan, mahalliy xandon pista navlari suvsizlikka chidamli. Shu bois, ularni sug'orilmaydigan hududlarda ekish mumkin. Qolaversa, an'anaviy navlar 14-15 yilda hosilga kirs, yangi navlar 7-8 yilda hosil bera boshlaydi.

Hozir O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti bazasidagi pistachilik tajriba stansiyasida har bir tur bo'yicha katta plantatsiyalar tashkil etilgan. Ilmiy tadqiqotlar davom ettirilib, yangi navlar rayonlashtirilyapti. Ushbu yangi navlarning keng ekilishi nafaqat ekologik barqarorlik va ozig'ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki eksportni yo'lga qo'yishda ham yaxshi samara beradi.

Olimlar amalga oshirayotgan yana bir ilmiy loyiha qurg'oqchilik va sho'rga chidamli galofit o'simlik navlarini ko'paytirishga qaratilgan. Bu borada Orolbo'yida, shuningdek, cho'l va yaylovlarda keng miqyosda ish qilyapti. Tog' o'rmonlarini kengaytirish ham ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri. Chunki tog' o'sgan har bir daraxt ildizi atrofida suv yig'adi. Tog' ekotizimlari qanchalik barqaror, daraxt ko'p bo'lsa, toza havo, obihayot va salqinlik manbai bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ilmiy loyihalar yashil makonni kengayishiga zamin yaratadi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Tog' bag'ridagi yangi o'rmon

Toshkent viloyatidagi Burchmulla o'rmon xo'jaligi yurtimizning so'lim va fayzli hududlaridan. Ushbu xo'jalik mehnat jamoasi ham shu kunlarda bahorgi ekish va ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlari qizg'in taraddud ko'rmoqda. 354 ming gektar maydonni egallagan mazkur xo'jalikda hozir 800 dan ziyod mutaxassis va ishchilar yangi o'rmonlar barpo etish, mavjud maydonlarni qo'riqlash, ko'chat yetishtirish borasida ishlayapti.

O'tgan yili ushbu jamoa ahlining sa'y-

vositalarining o'rmini bosishi mumkinligini qayd etadi. Shu bois, ota-bobolarimiz daraxtning soyasi jonga, mevasi tanga darmon deya e'zozlagan. “Birmi kessang, o'nni ek”, deb tabiatni asrashni, yaratuvchilikni keng targ'ib etgan.

Ayni paytda yurtimizda o'rmonlarni asrash va ko'paytirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish borasidagi xayrli ishlar ajdodlarimizning ushbu o'g'itlariga hamohangdir.

— Bu yil 438 gektar yangi o'rmon barpo etishni ko'zlayapmiz, — deydi Burchmulla o'rmon xo'jaligi bosh o'rmonchisi Baxtiyor Shorahmedov. — Buning uchun iqlim sharoitimizga mos navlar tanlanayapti.

55 gektarda ko'chatxonamiz bor. Shu yerda ninabargli, yaproqbargli manzarali va mevali nihollar yetishtirilyapti. Ishlarni tashkil etishda o'rmon xo'jaligiga tutash hududda joylashgan mahallalar bilan hamkorlik ham muhim.

Shu maqsadda 24 ta mahalla fuqarolar yig'iniga hamkorlikda ishlash bo'yicha taklif xati jo'natilgan. Ushbu mahallalar bilan “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini ro'yobga chiqarishda birgalikda ishlash reja qilingan. Buning uchun ijtimoiy daftarlarda turgan ishsiz aholiga yer ajratib berish orqali bandligini ta'minlashga ko'maklashish ham rejada turibdi.

Tog' o'rmonlarini rivojlantirish borasidagi bu ishlar ekologik muvozanatni yaxshilash barobarida turizm rivoji uchun ham katta imkoniyatlar yaratmoqda. Burchmulla o'rmon xo'jaligida ekologik nazorat punktlari yo'lga qo'yilib, sayyohlarga xizmat ko'rsatilyapti.

Iqlim va taraqqiyot

Iqlim o'zgarishi bugun taraqqiyotga to'g'onoq bo'layotgan global muammolardan. Bu nafaqat sayyoramiz, balki inson huquqlari uchun ham inqirozdir. Ekologik ofatlar sog'liqni saqlash, ozig'ovqat, suv va sanitariya, hatto yashash huquqiga ham bevosita ta'sir qilmoqda.

O'zbekiston zaminini joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi iqlim o'zgarishining og'ir oqibatlarini chuqur his etmoqda. Bu yuqoridagi aytganimizdek, iqtisodiyot rivojiga ham to'g'onoq bo'lmoqda. Mazkur muammoni hal etishning oqilona yo'li — yashil rivojlanishga erishish.

Mamlakatimizda bu borada “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energiyatejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish kabi ustuvor vazifalar amalga oshirilyapti. Joriy yildagi davlat dasturida ham bu yo'nalishda keng qamrovli chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Xususan, Parij bitimi talablaridan kelib chiqib, O'zbekistonning uglerod neytralligiga erishishining uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Bu yo'nalishdagi maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati katta. Qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash” loyihasini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Mazkur loyiha doirasida Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo va Namangan viloyatlarida salmoqli ishlar bajarilyapti. Ushbu hududlardagi o'rmon xo'jaliklari bilan hamkorlikda agro'o'rmonchilik, ekoturizmni rivojlantirish va sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etish maqsad qilingan. Shuningdek, muhofaza etiladigan

hududlarda qator ekologik loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashiladi.

Bundan tashqari, o'rmon xo'jaliklari hamda milliy tabiat bog'lari hududidagi o'rmon fondi yerini xatlovdan o'tkazish, undagi daraxt turlari, ularning yoshi va kamayib borayotgan turlarini aniqlash ko'zda tutilgan. O'rmon xo'jaliklari hamda milliy tabiat bog'lari hududida dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etiladigan yer maydonlarini tanlash, o'rmon va ovchilik xo'jaliklari hamda milliy tabiat bog'larining moddiy-texnik bazasini yaxshilash ham ko'zda tutilgan.

— Bugun ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi barcha davlatlar uchun dolzarb va muhim vazifa bo'lib turibdi, — deydi mazkur loyiha ekologi Dildora Aralova. — Mintaqamizda bu masalalarga oqilona yechim topishda yashil rivojlanish asosiy imkoniyat bo'ladi. Bu esa bugungi va kelajak avlodlarning sog'lom muhitga bo'lgan huquqlaridan to'liq foydalanishi sari to'g'ri yo'nalish olish deganidir. Shunga muvofiq, o'rmonlarni qayta tiklash va ularning uglerod saqlash imkoniyatini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlar global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda muhim o'rin tutadi.

Loyiha doirasida ko'plab chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Jumladan, tog'li hududlarda terassa usulida bog' barpo etish belgilangan. Mazkur usulda daraxt ekish suv tanqis hududlarda obihayotni tejash va yashillikni ko'paytirishga imkon beradi. Yana bir yo'nalish yaylovlarni tiklash bilan bog'liq. Bu ishlar boshlangach, ushbu maydonlarda mahalliy aholining chorva boqishi cheklanadi. Kutilgan samaraga erishish uchun esa ekologik loyihalar aholiga qiyinchilik tug'dirmasligi kerak. Ya'ni ko'p yillar chorva boqib daromad topishda bunday maydonlardan foydalanib kelgan aholining hayot tarziga zarar yetkazmaslik lozim. Buning uchun tabiatga bezarar va ayni vaqtda yashillikni asrash va ko'paytirishga imkon beradigan faoliyat turlarini joriy etish orqali aholiga ko'mak beriladi. Shu maqsadda ekologiyaga bezarar faoliyatni yo'lga qo'yish uchun kichik grantlar ham ajratiladi.

Bu jarayonda ijtimoiy daftarlarga kirgan aholi toifasi bilan alohida ishlash ko'zda tutilgan. Ularga daromad topishning yangi usullarini o'rgatish bilangina cheklanilmaydi. Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun mablag' ham ajratiladi. Masalan, meva quritadigan sex qurish uchun 11 million so'mlik grant beriladi. Olma va olxo'ri bog'larini barpo etish uchun ham biznes loyihalar ishlab chiqilyapti.

Loyihani to'la amalga oshirishda o'rmonchilik sohasi mutaxasssilarining bilim va tajribasini oshirish muhim. Shu maqsadda tashkil etilayotgan seminar-treninglarda soha mutaxasssilar malaka oshiryapti, o'rmonlarni rivojlantirish bilan bir qatorda sohada qo'shimcha daromad olish bo'yicha tajriba almashmoqda.

O'zbekistonning tabiiy ekologik sharoitida, yuqorida aytib o'tiganimizdek, ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar bor. Bu borada soha tashkilotlariga ko'mak berish ham ko'zda tutilgan. Masalan, sayyohlar uchun tashrif markazlari, kemping va boshqa vositalar qurishga yordam beriladi.

Bunday ekologik loyihalar amalga oshirilishi natijasida taraqqiyot strategiyasida belgilangan katta maqsadlardan biri — uglerod neytralligiga erishiladi va yashil moliyalashtirish tizimi takomillashadi. Ya'ni havoni ifloslantiruvchi va inson salomatligiga xavari yetkazadigan gazlar chiqarilishining oldi olinadi. Bu, avvalo, mintaqamiz aholisi, qolaversa, butun insoniyat uchun toza havo, musaffo tabiat, uzoq va sog'lom umr baxsh etish, mamlakatimizning xalqaro uglerod savdosi bozorida ishtirokini faollashtirish uchun ham katta imkoniyat deganidir.

7 MILLIARD DOLLARLIK MARRA

TO‘QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI ENG TEZ RIVOJLANAYOTGAN SOHAGA AYLANDI

Sohada zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi, yangicha yondashuvlar va o‘zgacha dizayn raqobat maydonini yuzaga keltirmoqda. O‘zbekistonning bu maydonga, katta bozorga kirganiga ko‘p bo‘lmadi. Milliy to‘qimachilik sanoatimizning yangi davri va rivoj keyingi yillarda ko‘zga tashlana boshladi.

Mehnatni qilgan boshqa-yu mevasini totgan boshqa edi

O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha dunyoda yuqori o‘rinlarda turadi. Shunday bo‘lsa-da, ilgari mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar xaridorir emasdi. Boisi, o‘zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ishonchsizlik ortidan xorijga milliy mahsulot eksport qilish u yoqda tursin, ichki bozorlarda ham talab juda oz bo‘lgan. Alaloqibat sohada ish boshlagan aksariyat tadbirkorlar faoliyatini ko‘pga bormasdi. Umuman olganda, bu soha faqatgina xomashyo ishlab chiqarishiga moslashib qolgandi.

Paxtani qayta ishlash korxonalari ip-kalava va xom mato ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Korxonaning o‘zida matoni bo‘yash, ichki laboratoriyalarni gapirmasa ham bo‘ladi. Bunday holatda yuqori qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni tasavvur qilish amir mahol edi.

Aksariyatimiz paxta terimida qatnashganmiz. Uning mashaqqati haqida ozmi-ko‘p xabarimiz bor. Ketmon ko‘tarib, suv yoqalab, paxta terimi tugaguncha qora terga botib, daladan beri kelmagan insonlarning peshona teri o‘z davrida arzimasa pulga baholangan ham bor gap. Ayniqsa, bizdan paxtani olib, o‘zimizga tayyor mahsulot qilib o‘n barobar narxda sotgan davlatlarni ham bilamiz.

Oqibatda o‘zimizda ishlab chiqarishdan ko‘ra xorijning mahsulotini olib kelib daromad topishni afzal ko‘radigan ishbiarmonlar soni ortdi. So‘ngra biz tayyor mahsulot ishlab chiqarish o‘rniga xorijga xomashyo eksport qilib, tayyor mahsulot import qiladigan davlatga aylandik. Mehnatni qilgan boshqayu mevasini totgan boshqa edi.

Bugun vaziyat tamomila o‘zgargan. Endi biz paxta yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlab, hatto qo‘shni davlatlardan xomashyo sotib olib, jahon bozoriga tayyor mahsulot eksport qilmoqdamiz.

Quruq qo‘shiq og‘iz yirtadi, deyishadi. Yaxshisi, buni raqamlar misolida ko‘rib chiqsak. 2016-yil O‘zbekistonning to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 1,1 milliard dollar atrofida bo‘lgan, 2024-yilda esa qariyb 3 milliard AQSH dollariga yetdi. Ammo o‘zimizda yetishtirilayotgan xomashyo va ishchi kuchini hisobga olsak, bundan ham yuqori marra larni egallashimiz mumkin.

So‘nggi yillarda yurtimizda ishlab chiqarishni ko‘paytirish, xususan, o‘zbek



to‘qimachilik sanoati raqobatbardoshligini ta‘minlash, tadbirkorlarga mahsulotini eksport qilish uchun qulay sharoit yaratish, kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish borasida qator qulayliklar yaratilmoqda. Joriy yil 16-yanvarda davlatimiz rahbari “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonni imzolashi sanoat rivojida yangi bir odim bo‘ldi.

Rivojlangan davlatlarning yuksalishida birinchi omil erkin tadbirkorlik muhiti bilan birga odamlarga boqimandalik kayfiyatini yo‘qotib, ularni qobiliyatiga qarab mehnatga yo‘naltirish hisoblangan. Buyuk Britaniya Bosh vaziri bo‘lgan Margaret Tetcherning quyidagi fikrlari bu borada o‘rinli: “Men boshqaruvga bitta aniq o‘ylab chiqilgan reja bilan kirishdim: ingliz jamiyatini to‘liq davlat qaramog‘idagi boqimandalik holatidan o‘z kelajagiga to‘liq ishongan tadbirkor holatigacha, “o‘tiramiz” va “kutamiz” Angliyasi o‘rniga “uyg‘on” va “yur” Angliyasi o‘rnatilishi uchun an‘anaviy “marhamat qilib menga bering”dan “hammasini o‘zimiz qilamiz” millatigacha o‘zgartirish”. Shu jihatdan olganda, bugun O‘zbekistonda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda xomashyodan tortib, tayyor mahsulotlarga bo‘lgan jarayonlar o‘zimizda kechayotgani, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratilayotgani diqqatga sazovor.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari dunyo miqyosida eng talabgir bo‘lish barobarida global muammo — ishsizlikni kamaytirishga ham katta hissa qo‘shadi. Aksariyat davlatlar ushbu tarmoqni rivojlantirib, yirik ish beruvchi sanoatga aylantirmoqda.

Farmonda ham bu sohada qilinishi kerak bo‘lgan muhim masalalar belgilab berildi. Jumladan, 2025-2027-yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash

zanjirini rivojlantirish asosiy maqsad ekani qat‘iy belgilandi. Joriy yilda sohada mahsulot eksportini 4 milliard dollarga, 2027-yilda esa 7 milliard dollarga yetkazish marrasi olindi. Shuningdek, AQSH va Yevropa davlatlari bozorlariga tayyor mahsulotlar eksportini 500 million dollarga yetkazish maqsad qilindi. Ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy qilish hamda xalqaro brendlarni jalb qilish orqali jami eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushi 70 foizga yetkaziladi.

Ko‘zlangan marra ancha yuqori. Endi esa bu maqsad sari qanday odimlash, nimalarga e‘tibor berish kerakligi ochiqdanlashi kerak. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: yurtimizda ishlab chiqarilayotgan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari bilan jahon bozorlarini zabt eta olamizmi? Xorij bozorlarini ancha yillardan beri egallab olgan brendlarga raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun nimalar qilishimiz, qanday choralar ko‘rishimiz kerak?

Bugungi kunda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarining sifati bilan birga dizayni va ko‘rinishi ham muhim bo‘lib bormoqda. Mazkur jihatlarini to‘ldirish uchun zamonaviy uskunalar joiz. Buning uchun esa tadbirkorlar oldida mablag‘ masalasi ko‘tariladi. Farmonda bu masalaga ham alohida urg‘u berilgan. Jumladan, endilikda loyiha tashabbuskori buyurtmasiga asosan, asbob-uskuna qiymatining 15 foizi miqdorida bo‘nak (avans) to‘lovlarini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada yillik 4 foiz stavkada (shundan 2 foiz bank marjasi) 7 yil muddatgacha ajratiladi.

Ip-kalavani qayta ishlashdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun qo‘shimcha quvvatlarni yaratish, jumladan, 62 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobiga 37 ming tonna trikotaj mato ishlab chiqarish va 40 ming tonna matoni bo‘yash, 95,4 million kvadrat



metr gazlama tayyorlash hamda 94,7 million kvadrat metr gazlamani bo‘yash quvvatlari yaratiladi, — deydi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi boshqarma boshlig‘i Abduhakim Abdurahmonov. — Bundan tashqari, 4 ta hudud — Toshkent, Andijon, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida to‘qimachilik industrial zonalarini tashkil qilinib, 2024-2026-yillarda qiymati 452 million dollarga teng 38 ta tarmoq loyihasi amalga oshiriladi. Natijada 9,2 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratiladi.

Mutaxassisning ta’kidlashicha, Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi sanoat zonasida “Zorlu Holding” kompaniyasi tomonidan qiymati 100 million dollar bo‘lgan 250 million kvadrat metr choynab, 110 million dona sochiq ishlab chiqarish quvvatiga ega hamda 17 ming tonna trikotaj matoni bo‘yash loyihalari bo‘yicha ishlar boshlangan.



Faktoring kompaniya tashkil etiladi

Mahalliy korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida faktoring kompaniya tashkil etiladi. Bunda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi kompaniyaga uning buyurtmasiga asosan, 5 yil muddatga 2028-yil 1-yanvardan qaytarish sharti bilan yillik 4 foiz stavkada 100 million dollar miqdorida mablag‘ ajratiladi.

Bu bilan faktoring xizmatlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish zanjiriga yangi moliyalashtirish mexanizmlari joriy qilinadi, — deydi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi bo‘lim boshlig‘i Abdug‘affor Umaraliyev. — Faktoring kompaniyalarga zarur aylanma mablag‘lariga tezda kirish imkonini yaratadi, bu esa ishlab chiqarish jarayonini kechikishlaris davom ettirishga yordam beradi. Korxonalar moliyaviy ko‘rsatkichiga qarab limit belgilanadi. Misol uchun, agar korxonaga 1 milliard so‘mlik limit belgilangan bo‘lsa, faktoring kompaniya ushbu mablag‘ni 1-2 kun ichida ta‘minotsiz to‘laydi. Bu oylab kutishga hojat qolmaydi, degani.

Faktoring xizmatlar uchun komissiya oyiga 0,5 yoki yillik 6 foizni tashkil qiladi. Masalan, 3 oy uchun 1,5 foiz, 6 oy uchun esa 3 foiz bo‘ladi. Bu bank foiziga nisbatan raqobatbardosh stavkalaridir.

Hozir faktoring xizmatni tashkil qilish tartibi ishlab chiqilmoqda. Korxonalardan takliflar olinadi, bu uning qulay va shaffof bo‘lishiga yordam beradi.

Yangi bozorlar tomon

Davlatimiz rahbari 2024-yil 16-aprelda to‘qimachilik sohasida eksport va investitsiya hajmlarini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishida “Ushbu sohada yangi yagona ishonchli yo‘limiz — yuqori qo‘shimcha yaratish uchun mavjud xomashyoni to‘liq qayta ishlash va eksportni an‘anaviy

arzon bozorlardan yangi, qimmatroq bozorlarga yo‘naltirish kerak”, deya ta’kidlagandi.

Bugungi kunda xalqaro raqobat tez sur‘atlarda o‘sib bormoqda, bu esa ko‘plab bozor imkoniyatlariga eshik ochishi mumkin. Yurtimizda doimiy bozorlardan ko‘ra Yevropa bozorlariga kirib borish uchun muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Yaqin yillarda bizda Yevropa bozoriga kirib borish masalasi qiyin edi. Negaki majburiy mehnat va bolalarni mehnatga jalb qilish holatlari uchrab turardi. Bu esa Yevropa bozorlarida to‘qimachilik mahsulotlariga taqiy qo‘yilishiga sabab bo‘lgandi. 2017-yildan Yevropa Itifofiga kengashining ijobiy qarori asosida to‘qimachilik mahsulotlari ham Yelga faol eksport qilina boshlandi. O‘sha yili O‘zbekistondan Yevropa Itifofiga to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 45 million yevroni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 161 million yevroga yetgani shundan dalolat beradi.

Mahsulotlarning xalqaro maydonda tan olingan sertifikatlari mavjud. Farmonda bunga ham alohida urg‘u berilgan. Endilikda “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan korxonalariga xalqaro (“GOTS”, “OEKO-TEX”, “BCI”, “BSCI”, “Organic Cotton”, “SEDEX” va shu kabi) sertifikatlarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash uchun beriladigan moliyaviy yordam miqdori doirasida amalga oshirilgan boshqa xarajatlarni ham qoplab beriladi. Soha korxonalarning xalqaro standartlar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishini kengaytirish orqali Yevropa va AQSH bozorlariga tayyor mahsulot eksporti 500 million dollarga yetkaziladi.

Milliy brend

Yurtimizdan dengiz tranzit yo‘nalishlariga chiqish uchun ikki davlatni kesib o‘tish kerak. Bu esa transport xarajatlari oshishiga va jahon to‘qimachilik mahsulotlari bozorida narx raqobatida yutqazishga olib keladi. Shu bois, O‘zbekiston ustunlikka ega bo‘lish uchun xaridorlarga tan olinadigan va jozibador milliy brendni ishlab chiqishi kerak. Buning uchun esa zamonaviy talablarga javob beradigan biznes modellar yaratish, milliy brend bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash zarur.

Bugungi kunda yurtimizda to‘qimachilik mahsulotlari tashqi bozorlarda yagona tan olingan brend sifatida e‘tirof etilishi borasida muayyan kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, marketing sohasida oqshashlar kuzatilyapti. Bu esa yurtimiz sanoatini rivojlantirish, salohiyatini ko‘rsatishga to‘sinlik qiladi.

Butun dunyoda onlayn savdo kundan kunga rivojlanib bormoqda. Xalqaro bozorda marketpleyslardagi savdo-sotiq ulushi ortib, katta statistik ko‘rsatkichlarga yetdi. Jahon tendensiyalari bilan hamnafas bo‘lish bugungi kunning talabidir. Ertangi kun IT texnologiyalar va marketpleyslar bilan chambarchas bog‘liq ekani qayd etilgan farmonda ushbu yo‘nalishga katta urg‘u berildi. Dastur doirasida mahalliy biznes vakillarini o‘qitish, ushbu yo‘nalishni keng tatbiq etish va dunyo bozoridagi marketpleyslarda “Made in Uzbekistan” brendi ostidagi mahalliy mahsulotlarni yo‘yish ko‘zlangan. Bu borada hukumatimiz tadbirkorlarga barcha sharoitlarni yaratmoqda. Jumladan, endi Savdo-sanoat palatasi mahalliy mahsulot va brendlarni xalqaro marketpleyslarda targ‘ib qiladi, “Made in Uzbekistan” dasturini amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Bir so‘z bilan aytganda, farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish orqali jahon bozoriga mahsulotlarimizni milliy brend ostida chiqarish, xomashyodan mahsulotgacha bo‘lgan jarayonni texnologik jihatdan to‘liq qamrab olishdir. Agar belgilangan maqsadlarga yetilsa, sanoat rivojlanishi bilan birga ko‘plab insonlarni ish bilan ta‘minlash imkoni yuzaga chiqadi. Asosiysi, O‘zbekiston bu borada ulkan salohiyatga ega. Endi esa uning samarasini ko‘rish joiz.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TABIAT NE‘MATI Keltirayotgan Daromad



Quyoshli xonadon

Bunga ancha bo‘ldi. Tushlik payti edi. Yorqin aka ikki hamkasbi bilan ishxonasiga yaqin joydagi oshxonaga bordi. Bugun bir maza qilib osh yetishni niyat qilishdi. Hovuri ko‘tarilib turgan boshga endigina qo‘l uzatgan vaqti telefoniga SMS xabar keldi. Ochiqb qaradi, hududiy elektr tarmoqlaridan ekan. Xonadoni elektrdan qarzi borligi uchun tarmoqdan uzilgani yozilgandi. Ajablandi. Hali ikki kun bo‘ldi, ellik ming tashlagandi. Kayfiyati tushib, ishtahasi ko‘g‘ildi.

— Bu elektrga pul bardosh beradimi o‘zi? — deb yuborganini sezmay ham qoldi.

Hamrohlar nima gapligini anglab, unga dalda bergan bo‘ldi. Qish payti elektr energiyasi ko‘proq sarflanishini tushuntirib, kunlar isiy boshlagachi, iste‘mol ancha kamayishini uqtirishdi.

— Xohlasang, oson yo‘lini o‘rgataman, — deb qoldi shu payt hamkasblaridan biri.

— Endi bir kamim elektr o‘g‘irlab, gap-so‘zga qolishim edi, — deya norozi qaradi Yorqin aka.

— Kim senga o‘g‘irlik qil, deyapti? Bilsang, eng halol va oson hamda daromadli yo‘lini o‘rgataman.

— Qanday yo‘l ekan bu? Yana daromadli, deysanmi?

— Mana, meni hech ko‘rganmisan elektr energiyasi uchun pul to‘laganimmi? Yo‘qmi? Sababi xonadonimga ikki-uch borgansan, lekin e‘tibor bermagansan. Bundan bir yil oldin quyoshdan elektr oluvchi uskuna o‘rnatgandim. Hozir pul to‘lash o‘rniga menga to‘lashyapti.

— Qo‘ysang-chi, buyog‘i oshib tushdi. To‘g‘ri, o‘z iste‘molinga yetayotgandir. Lekin ortiqchasini sotishingga ishonish qiyin. Qolaversa, nega sendan sotib olish kerak ekan? Yaxshisi, elektrga pul to‘lab qo‘yganim ma‘qul, — deya tushlikni ham chala qoldirib chiqib ketdi.

Shu suhbat bo‘ldi-yu, Yorqin aka hovlisiga quyosh panellarini o‘rnatish haqida o‘ylab qoldi. Ancha vaqtgacha ikkilalanib yurib, yodidan ham ko‘tarilib ketdi. Bir kuni uyida o‘tirib, elektrga ketgan mablag‘ni hisoblab ko‘rsa, oyiga naq bir yarim million so‘mgacha ishlatilgan ekan. Ayniqsa, qish oylarida sarf ancha oshgan. Shunda hamkasbi aytgan gaplar yodiga kelib, quyosh paneli o‘rnatish harakatiga tushib qoldi. Tezda ishga kirishdi. Bu borada mutaxassislar maslahatini oldi. Xonadoniga panel o‘rnatgan qo‘shnilari bilan suhbatlashib chiqdi. Ular ham har bir kishi buni o‘rnatasa, ancha foyda topishini aytdi. Nima bo‘lsa bo‘ldi, deya 25 kVt. quvvatli quyosh foto panellari o‘rnatdi.

— Ancha vaqtgacha ikkilalanib yurdim.



“Energetika vazirligi bilan birgalikda ijtimoiy og‘ir toifadagi 23 ta mahallada, ya‘ni Dehqonobodda 4 ta, Qamashida 8 ta, Kitobda 2 ta, Kosonda 7 ta hamda Nishon tumanida 2 ta 11 MVt. quvvatdagi kichik fotelekt stansiya barpo etiladi.

Ko‘pchilikning ma‘qullashiga ko‘ra, tavakkal qilib o‘rnatib oldim, — deydi qarshilik Yorqin Aslonov. — Aslida, oldinroq o‘rnatmasam bo‘larkan. Oilamizga bunchalik foydasi tegadi

deb o‘ylamagandim-da. Tomga o‘rnatgandan so‘ng bu uskuna turgan joyida sizga naf keltirarkan. Oldinlari elektr uchun oyiga bir yarim million so‘mgacha pul sarflardim. Bu

gohida ro‘zg‘orga og‘irlik qilardi. Lekin iloj qancha, kerakligi uchun ishlatishga majbur edik. Endi esa xonadonimiz iste‘molidan tashqari hududiy elektr tarmoqlariga kuniga o‘rtacha yuz ellik ming so‘mlik elektr sotaymiz. Bu oyiga o‘rtacha to‘rt million so‘mdan ortiq foyda, degani.

“Quyoshli xonadon”lar nafaqat Qarshi tumanida, balki viloyatning boshqa hududlarida ham tobora ko‘payib bormoqda. Misol uchun, Kitob tumanidagi “Alaog‘ylik” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Sherzod Rahimov ham yaqinda uyiga 35 kVt. quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatdi. Natijada u nafaqat xonadonini elektr energiyasi bilan ta‘minlamogda, balki ortiqcha elektrni davlatga sotib, qo‘shimcha daromad ham olmoqda. Ushbu daromad oila byudjetiga sezilarli ta‘sir qilgan. Shu bois, u kelgusida yana qo‘shimcha panellar o‘rnatishni rejalashtirmoqda.

— Mamlakatimiz quyoshli yurt, — deydi Sh.Rahimov. — Shunday imkoniyat bor ekan, bundan unumli foydalanish lozim. Quyosh panellari o‘rnatgach, qiziqish bildirib, so‘rovchilar ko‘paydi. Qo‘shnilarimizga, yaqinlarga o‘rnatishni tavsiya etyapmiz. Ba‘zilari ishonmasdan kelib, ishlash jarayonlarini kuzatib ko‘rmoqda. Eng muhimi, buning oibiga daromadni ancha katta bo‘lmogda. Tabiatning bizga bergan shunday ne‘matidan bahra olmaslikning o‘zi xato. Xonadoningizda turib, iste‘molga yarasha tokni shu joydan olish ham quvonchli. Bundan tashqari, beminat bo‘lganiga nima yetsin!

Hududda Sherzod aka kabi ishbiarmon, islohotlarni to‘g‘ri tushunib qabul qilayotgan fuqarolar soni kun sayin ortmoqda. Natijada ayni vaqtga qadar mazkur mahallada aholi va

tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘rnatilgan quyosh panellarining umumiy quvvati 200 kVt. ga yaqinlashdi.

Keyingi yillarda “yashil” energiyaga o‘tish jadallashmoqda. Jumladan, xonadonlarda, turli ishlab chiqarish obyektlarida hamda korxona va muassasalarda quyosh energiyasidan foydalanishga o‘tilmoqda.

Xususan, Qashqadaryo viloyati hokimligi mas‘ullari bergan ma‘lumotga ko‘ra, voha bo‘yicha joriy yilda jami 95,3 MVt. quvvatdagi muqobil energiya manbalari barpo etiladi.

Jumladan, jami 4379 ta aholi, ijtimoiy soha va tadbirkorlik subyekti bino-inshoatlari tomlariga 55,7 MVt. quyosh panellari o‘rnatiladi. Shundan 180 ta ijtimoiy soha obyekti va davlat idorasiga 3,5 MVt. hamda 1392 ta aholi xonadoniga 14,4 MVt. va 2807 ta tadbirkorlik subyektiga 37,8 MVt. belgilangan.

Shuningdek, Energetika vazirligi bilan birgalikda ijtimoiy og‘ir toifadagi 23 ta mahallada, ya‘ni Dehqonobodda 4 ta, Qamashida 8 ta, Kitobda 2 ta, Kosonda 7 ta hamda Nishon tumanida 2 ta 11 MVt. quvvatdagi kichik fotelekt stansiya barpo etiladi.

Shu bilan birga, aniqlanib olingan jami 147 ta hududda 4,6 MVt. quvvatli mini va gidroelekt stansiyalari quriladi. Bundan tashqari, “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan Shahrisabz tumanidagi Oqsuv daryosida Rabot va Chappasuv hamda Oqdaryo-Oqsuv daryosida Tamshush kabi jami 24 MVt. quvvatdagi gidroelekt stansiyalari ishga tushiriladi.

Tahlillarga ko‘ra, bugungacha viloyatda jami 5632 ta obyektkga 76,9 MVt. quvvatli quyosh panellari o‘rnatildi.

Sirasini aytganda, viloyatda “yashil” energetika samaradorligini oshirish ichil davom ettirilmoqda. Maqsad esa bor imkoniyat ishga solinib, aholining farovon turmush kechirishiga zamin yaratish.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



LOLA MUROTOVA MAKTABI:

FIDOYILIK VA MEHNATSEVARLIK
CHIROG‘I YONIQ MASKAN

Ta’lim

Ko‘hna Farg‘onaning janubiy sarhadlarida qad ko‘targan “Yangi O‘zbekiston” massivida Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Qahramoni Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan texnikum bilimli va izlanuvchan yoshlar bilan gavjum, fayzli.

Bu yerda kasb-hunar o‘rganish istagidagi yoshlarning bilim olishi, nazariy ko‘nikmalarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Butun umrini qishloq xo‘jaligi sohasiga bag‘ishlab, elda hurmat va e‘tibor qozongan, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi, “EL-yurt hurmati” va “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari sohibi bo‘lgan Lola Murotova nomidagi maktab o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Fermerning boy tajribasini yoshlarga yetkazish, qishloq xo‘jaligida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash maqsadida tashkil etilgan 480 o‘ringa mo‘ljallangan mazkur ta’lim maskanida ayni damda 262 o‘quvchi 5 ta kasb yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olmoqda. Jarayonlar dual ta’lim tizimi asosida, ya‘ni mashg‘ulotlarning 40 foizi nazariy, 60 foizi amaliy tarzda o‘tiladi.

Muassasada o‘ttizdan ortiq auditoriya, yettita laboratoriya, kompyuter xonalari, faollar zali va muzey mavjud. 150 o‘rinli yotoqxona, sport zali, mini futbol maydonchasi hamda zarur jihozlarga ega ustaxona o‘quvchilar ixtiyorida. Shuningdek, issiqxona va mashg‘ulotlar uchun avtodrom bunyod etilgan.

— Prezidentimiz ta’lim muassasasi ochilishi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan tantanali marosimda fermer Lola Murotovaning ko‘p yillik mehnati, insoniy fazilatlarini yodga olib: “Lola opa o‘zbek ayolining nimalarga qodirligini ko‘rsatdi, shu bilan birga, juda kamtar va soddadil edi. Fidokorligi, mehnatsevarligi bilan yurtimiz rivoji va obodligiga katta hissa qo‘shgan edi. Bu jihatar yoshlarga



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

o‘rnak bo‘lishi, ular kasbni yaxshi o‘rganishi kerak”, degandi, — deydi texnikum direktori Gulira‘no Xoligova. — Ushbu e‘tirof, e‘tibor doimiy ish amalmiz, hayotiy dasturimizga aylangan. Bu yerda ta’lim-tarbiya olib, kasb-hunar egasi bo‘lgan yoshlar hozirjavob, izlanuvchan, intiluvchan, o‘z kasbining yetuk bilimdoni va albatta, fidoyi insonning munosib izdoshi bo‘lishga harakat qilib kelmoqda. Sohadagi bog‘ merosini o‘rganish va asrab-avaylash hamda qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirishni maqsad qilgan o‘quvchilar bilan Oltiariq tumanida fermer asos solgan “Nurli obod” xo‘jaligiga tez-tez sayohat uyushtirib turish, uning ishlari bilan tanishib, ibrat olish, fermer izdoshlari bilan suhbatlashish an‘anaga aylandi.

Muassasaga dastlabki bosqichda umumta’lim maktablarining 9-sinfini bitirganlar o‘qishga qabul qilingan. Yangi o‘quv yilidan boshlab 11-sinf va sirtqi ta’limga asoslangan 9 ta yo‘nalishda mutaxassislar tayyorlanadi. O‘quv jarayoni boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari asosida, amaliyot bilan bog‘liq holda o‘tkazilmoqda. Texnikumda o‘qish baxtiga muayassar bo‘lgan o‘g‘il-qizlarning orzulari bir olam.

— Lola Murotova haqida juda ko‘p eshitganman, uning hayot tarzi asosida yozilgan “Barxanlarda ungan gul” kitobini o‘qiganman, televizorda ko‘rib, mana shunday inson bo‘lishni orzu qilardim, — deydi Shahodat Yozqubjonova. — Qahramon nomidagi texnikumda o‘qish maqsadimni ota-onam ham qo‘llab-quvvatladi. Ayni kunda o‘simliklar himoyasi laboranti yo‘nalishida tahsil olayman. Bu kasb-hunarga talab yuqori. Keyingi yillarda ekologik toza meva-sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga talab ortdi. Ekin maydonlari unumdorligini oshirish, yangi navlar yaratish va tanlash, har bir hudud iqlim va suv ta‘minoti sharoitidan kelib chiqib mahsulot yetishtiruvchi yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Ta’lim muassasamiz eng zamonaviy

yerda yaxshi haq to‘lanadigan ishga taklif qilishyapti. Bu juda yaxshi imkoniyat.

Muassasada “Fermeler maktabi” tashkil etildi. Unda buyurtmachilar mablag‘lari hisobidan fermerlar malakasini oshirish kurslari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu kunga qadar sabzavotchilik, bog‘dorchilik, asalarichilik yo‘nalishlarida yuzdan ortiq kishining kasbiy malakasi oshirildi.

— Taraqqiyotning bugungi rivoji har bir narsaga ilmiy asosda, ayni hisob-kitob bilan yondashishni talab qilmoqda, — deydi Farg‘ona shahridagi “Zunrad niholi” bog‘dorchilik fermer xo‘jaligi rahbari Muzaffar Ahmedov. — Bu yerda uch oylik o‘quv kursida bog‘dorchilik, asalarichilik bilan bog‘liq juda ko‘p ma‘lumotlarga ega bo‘ldim. Ayniqsa, intensiv usulda bog‘ yaratish, suvdan tejash foydalanish, muqobil sug‘orish tizimlarini qo‘llab mahsulot yetishtirish, ichki va tashqi bozorga chiqarish, bozor marketingi yo‘nalishlarida malakali mutaxassislardan ko‘p narsalarni o‘rgandik, tajriba almashdik. Bu jarayon amaliy ishimizda qo‘l kelishiga ishonaman. Bog‘dorchilikdan tashqari asalarichilikni rivojlantirishga qaratilgan o‘z dasturimizni ham ishlab chiqdik. Har bir jarayon aniq hisob-kitoblarga asoslangan. Masalan, bitta asalari oilasini bir yilda 4-5 hissa ko‘paytirish mumkin. Asalarilar mevali bog‘lar hosildorligini tabiiy usulda oshirish xususiyatiga ega. Avvallari ishini bunday tashkil etmaganmiz, boriga ko‘nikib yashashga odatlanib qolgan ekanmiz. Malaka oshirish jarayonida qarashlarnimiz o‘zgardi. O‘ylaymanki, bunday hamkorlik bardavom bo‘lib qoladi.

Sirasini aytganda, bu yerda tom ma‘nodagi Lola Murotova izdoshlari kamolga yetmoqda. Har jihatdan bilimli, izlanish va intilishdan to‘xtamaydigan g‘ayrat-shijoatga to‘la yoshlar hali yurtimiz taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Ikrom TOJIBOYEV,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor

**Xalqimiz turmush tarzi
yuksalishining asosiy sharti
sifatida ko‘rilayotgan ta’limni
rivojlantirish mana bir necha
yildirki, davlatimiz siyosatining
asosiy masalaridan biri**

**bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda yurtimizda
ta’lim tizimini rivojlantirish, o‘qitishni jahon
andozalariga moslash va yetuk malakaga ega
kadrlar yetishtirish bo‘yicha qator ishlar amalga
oshirildi.**

2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturda maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellari barpo etish maqsadi belgilangan. Chirchiq davlat pedagogika universitetida “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: uzluksiz ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” asosida fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiyalashning usul va yo‘llari, o‘quv muassasalari hamkorligini yo‘lga qo‘yish asoslari, ta’lim tizimi hamda sifatini boshqarishda klaster modelining o‘rni va ahamiyati konseptual pedagogik muammo sifatida o‘rganilmoqda.

muammolarni aniqlash, o‘quvchilar bilimiga ta’sir qiluvchi omillarni belgilash va bartaraf etish, boshlang‘ich ta’limda savodxonlikni yaxshilash yuzasidan tadqiqotlar olib borishga yo‘naltirilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida boshlang‘ich ta’limning sifat va samaradorligini oshirish, bunda o‘quvchilarning savodxonlik darajasini yanada kuchaytirish, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ilmiy, nazariy, metodologik va amaliy jihatdan kutilgan darajada tayyorlash masalasi belgilangan. Jumladan, 3-4-sinf o‘quvchilari uchun o‘qish va matematik savodxonlik bo‘yicha sinflar tashkil etish, boshlang‘ich ta’limning sifat va samaradorligini baholashda xalqaro dasturlar — PISA, PIRLS, TIMSS, STEAM standartlaridan

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA —
MUAMMOLAR YECHIMIGA YO‘L

Milliy o‘quv dasturi asosida ta’limni amalga oshirish jarayonida Chirchiq davlat pedagogika universitetida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qobiliyatini aniqlash, o‘quvchilarning ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish diagnostikasi yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu ta’lim oluvchiga ta’lim yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash va kelajagini shu asosda qurish imkonini yaratasa, ta’lim beruvchi uchun esa aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf etish, o‘quvchilarning ham fan sohasidagi, ham shaxsiy darajadagi muammolarini aniqlashga yordam beradi. Ta’lim dasturini amalga oshirish natijalarini monitoring qilishda ham pedagogik diagnostika muhim rol o‘ynaydi.

Taniqli psixolog hamda pedagoglarning usul va tavsiyalariga asoslanib, universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan maxsus diagnostik topshiriqlar majmui ishlab chiqilgan bo‘lib, ular asosida Chirchiq shahridagi 13-17-umumta’lim maktablardan 517 nafar 1-4-sinf o‘quvchisining bilim va qobiliyatlari tekshirildi. Tekshirishda olingan dastlabki natijalar ularning iqtidor darajasi ancha past ekanini ko‘rsatdi. Jumladan, fikrni mazmunli aks ettirish 7,4 foiz, muammolarni umumiy tarzda hal qilish qobiliyati 30,5 foiz, yaxlit rejalashtirish 10,2 foiz

foydalanish vazifalari qo‘yilgan. Bu yangi pedagogik ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, unga ko‘ra, 3-4-sinf o‘quvchilari uchun o‘qish va matematika fanlari bo‘yicha yangi mashg‘ulotlar, darslar tashkil etish va ularga mutaxassislarni, oliy ta’lim

diagnostika ko‘proq maktab psixologi faoliyati bilan bog‘lanmoqda. Hozirgi global dunyoda elektron (gohida qog‘oz) resurslar orqali, asosan, maktabgacha va o‘smirlik yoshidagi his-tuyg‘ular, xususiyatlar, aqliy jarayonlar va shaxsning holatini o‘rganish uchun ko‘plab usullar mavjud, ammo boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘rganishda diagnostika usullari yetarli emasligi ayon bo‘lib qolmoqda.

Diagnostikaga nafaqat psixologik yoki ta’limiy masala sifatida yondashish, balki talabalarning qobiliyatlari hamda qiziqishini aniqlash sifatida ham qarash darkor. Shu maqsadda universitet bo‘yicha pedagogik diagnostika ishlari amalga oshirildi, ya‘ni 4840 nafar talaba orasida

universitetning 30 dan ortiq ilmiy tadqiqotchisi ushbu loyihalarda faoliyat olib bormoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar hamda axborot texnologiyalarni joriy etish, malakali pedagogik kadrlar tayyorlash maqsadida “Maktabgacha ta’lim laboratoriyasi” yo‘lga qo‘yilgan. Laboratoriyada innovatsion tajriba maydonchasi sifatida universitetning professor-o‘qituvchilari, talabalar muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy loyihalar ustida ishlamoqda.

Talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirish, ijodkorlik ko‘nikmalarini tarbiyalash, shuningdek,



pedagogik va psixologik munosabatlar hamda kasbga yo‘naltirish yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, talabalarning ko‘pchilik qismi diqqatni jamlashga e‘tibor qaratmasligi aniqlandi. Bu natijaning shakllanish sababini atrof-muhit bilan bog‘lasak mubolag‘a

klaster yondashuviga asoslangan o‘quv-amaliyot jarayonida o‘qituvchi — talaba — o‘quvchi o‘rtasida “teskari aloqa”ni o‘rnatish, “o‘zaro ta’sir kuchi”ni paydo qilish maqsadida Tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn ilmiy-tadqiqot markazi faoliyat ko‘rsatayotir. Markaz moddiy-

bo‘lmaydi. Chunki bugungi yoshlarimiz hayotida faol ishtirok etayotgan Internet tarmog‘i, ijtimoiy sahifalar, telefon va boshqa elektron qurilmalar diqqatni jamlash ko‘nikmasiga juda katta salbiy zarar yetkazmoqda. Talabalar orasida mantiqiy

texnik bazasi asosida zargarlik o‘quv-amaliy laboratoriyasi, haykaltaroshlik o‘quv xonasi, maket loyihasi o‘quv va amaliyot xonasi, ijodiy tadqiqot laboratoriyasi, yog‘och o‘ymakorligi o‘quv amaliyot xonasi, miniatyura xonasi, kompozitsiya, dizayn, amaliy san‘at o‘quv-amaliyot xonalari ishlab turibdi. Shuningdek, Tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va qo‘shimcha kasb-hunarga o‘qitish markazi tashkil etilgan. Markazda payvandlash, tokarlik, tikuvchilik, duradgorlik kasblarini o‘rgatish yo‘lga qo‘yilgan. “Kompetent servis” o‘quv-psixologik markazi esa talabalarni kasbiy amaliyotga erta moslashtirish, kasbiy kompetentlik mobilligini ta’minlash hamda Toshkent viloyati (Chirchiq shahri) aholisiga psixologiya, pedagogika va inklyuziv ta’lim yo‘nalishlarida amaliy (ijtimoiy) yordam ko‘rsatishga xizmat qilmoqda. Markaz faoliyati doirasida logopediya, inklyuziv ta’lim, defektologiya hamda aqliy rivojlanishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlanyapti.

Informatika kafedrasida hozirida tashkil etilgan IT markazda rezidentlar video-fotomontaj, poligrafiya, media, SMM sohalarida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, bu yerda matematika hamda C++ dasturlash tili bo‘yicha o‘quv kurslari ochilgan.

Tabiiy fanlar fakulteti o‘quv bazasida issiqxona xo‘jaligi va tadbirkorlik o‘quv kursi yo‘lga qo‘yilishi ortidan talabalar mahsulot yetishtirish, yetishtiriladigan mahsulot nomenklaturalari to‘g‘risida nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi ta’minlangan holda zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lyapti.

Ayni paytda rivojlangan mamlakatlar pedagogik ta’lim tizimi kadrlarning ko‘p profilililik hamda zamonga moslashuvchanlik qobiliyatlariga katta e‘tibor bermoqda. Shunga ko‘ra, zamonaviy maqsad o‘qituvchisini tayyorlash kelajakda Chirchiq davlat pedagogika universitetida qo‘sh mutaxassislik tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bunda talabalarning qiziqishi va istaklarini inobatga olgan holda o‘quv yili davomida ikki yo‘nalish dasturi o‘qitiladi va tahsil olgan yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘sh diplomga ega bo‘ladi. Bugun universitetda maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida qo‘sh mutaxassislik dasturlari ishlab chiqilgan. Bu tizim kelajakda bitiruvchilarimizning ko‘p profili hamda raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi.

Ta’lim tizimini rivojlantirishda uning barcha bo‘g‘inlarini uzviy bog‘lash hamda tizimdagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish muhim. Pedagogik diagnostikaning asosiy vazifasi ham shunday, ya‘ni ta’lim oluvchilarning ma‘lum bir rivojlanish bosqichidagi ta’lim va tarbiya darajalari to‘g‘risidagi diagnostik ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali keyingi jarayonni loyihalash uchun asosiy ma‘lumot bo‘lib xizmat qiladi.

“Universitetda boshlang‘ich ta’limdagi muammolarni aniqlash, ta’lim mazmunini yaxshilash maqsadida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun “Pedagogik diagnostika” kursi tashkil etildi. Kurs kasbiy fanlar doirasida talabalarning diagnostik kompetensiyasini shakllantirishni ta’minlashga mo‘ljallangan.



o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘diradi. O‘qish jarayonida ijobiy dinamika qayd etilgan, ammo o‘quvchilarning kreativlik darajasi, qidiruv xarakteridagi muammolarni hal qilish qobiliyati yetarli darajadan past bo‘lib qolmoqda ekan. Shuningdek, 3-4-sinf o‘quvchilarining 11,7 foizi mazmunni mulohaza yuritishni, 46,1 foizi fanlardagi muammolarni yechish qobiliyatini, 28,1 foizi rejalashtirishni namoyish etdi.

Ayni paytda universitet boshlang‘ich ta’lim fakultetining ilmiy faoliyati mazkur statistik natijalarni tahlil qilish,

pedagoglari bilan muntazam fikr, tajriba almashish tizimi shakllantirilgan. Universitetda boshlang‘ich ta’limdagi muammolarni aniqlash, ta’lim mazmunini yaxshilash maqsadida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun “Pedagogik diagnostika” kursi tashkil etildi. Kurs kasbiy fanlar doirasida talabalarning diagnostik kompetensiyasini shakllantirishni ta’minlashga mo‘ljallangan. Zero, hozir o‘qituvchilar tomonidan eng ko‘p o‘rganiladigan tushunchalar “monitoring” va “diagnostika” bo‘lib,



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Yosh avlod uchun maxsus badiiy adabiyot yaratish an’anasi jamiyat taraqqiyotining muhim ma’naviy ehtiyoji tarzida reallikka aylangach, uning maqsadi va vazifalari oydinlasha bordi. Badiiy adabiyotning inson ruhiyati, hatto shaxsiyati shakllanishi hamda rivojlanishidagi o‘rni beqiyosligi bolalar adabiyotida ham yaqqol ko‘rindi.

Asarlarning ta’sir kuchi yosh qalblarda ezgulik, vatanparvarlik, badiiy-estetik didni shakllantirish, umuman, hayotga, butun olamga ijobiy va ijodiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bugun ta’lim-tarbiya berish bilan birga yosh kitobxonlarda estetik zavq uyg‘ota oladigan, qaynoq hayot manzarasini butun borlig‘icha aks ettira bilgan chinakam badiiy asarlar nihoyatda zarur. Shu ma’noda, bolalar adabiyoti mutolaasida ham o‘quvchining yosh xususiyatlarigina emas, asarning janr va mavzu mundariyasi, ifoda uslubi va psixologik tasvirdagi o‘ziga xosliklarni tadqiq qilish taqozo etilayotir.

Adabiyot va kitobxonlik ibtidosi bo‘lgan bolalar adabiyoti, uning tarixiy tadriji hamda yangi tamoyillarini jahon bolalar adabiyoti bilan qiyosiy o‘rganish orqali jarayonning muhim xususiyatlarini oydinlashtirish, o‘zbek bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e’tibor qaratish, yangi asr kichiktoylarining qiziqishi, ruhiy olami, ijtimoiy hayotga munosabati aks etgan asarlar orqali axloqiy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirish har qachongidan ko‘ra dolzarb.

Xo‘sh, bu borada sohada faoliyat yuritayotgan yoshlar va mutaxassislar nima deydi? Ularning shu mavzudagi fikrlari bilan qiziqdik.

Yosh chegarasini kim belgilaydi?

Dilnavoz NAJIMOVA,
bolalar yozuvchisi:

— Kesilayotgan daraxtlarni ko‘rib, arra ko’targanlarga qarshi ommaviy kurashish samara bermaydi. Avvalo, jamiyat ahliga daraxtning qiymati haqida ma’lumot berish lozim. Ya’ni daraxt faqat soya va kislorod beruvchi emas, balki yer ostidagi suvni saqlab turuvchi, zararli gaz va changlarni yutuvchi, ruhiy quvvat taratuvchi, xullas, inson hayotini ta’minlovchi o‘simlik deb taqdim qilish kerak.



Odamlar buni jamiyat darajasida anglab yetsa, daraxtlar kesilishi o‘z-o‘zidan to‘xtaydi. Menimcha, kitobxonlikni rivojlantirish uchun ham mutolaaning ahamiyati haqida yetarlicha tasavvur bo‘lishi kerak. Chunki ko‘pchilik kitobga bilim va tarbiya manbai sifatidagina qaraydi. Afsuski, bunday qarash ijodkorlarda ham mavjud. Bu haqda bir paytlar kattakon maqola yozilgandi.

Bunday g‘alati qarashning mohiyati shundaki, bolalar uchun yozilgan asarda, albatta, katta hikmat, tarbiyaviy g‘oya bo‘lishi shart. Mana shunday qarash tufayli biz 4-5 yoshli bola uchun ham “hikmatli” asarlar yozib, ularni mutolaadan bezdiramiz. Yo‘q, bola shunchaki o‘qib malaka oshirishi, matnini his qilishi, harakat va ma’lumotlar ketma-ketligini kuzatishi uchun ham sodda asarlar yozish mumkin-ku!

Masalan, “Bek Lolaga ruchka berdi, Lola ruchkani Ra’noga, Ra’no Layloga, Laylo Barnoga uzatdi. Shunda ruchka kimda? (rasm)” kabi juda sodda matnlar biz uchun ma’nisizdek, badiiy asar emasdek tuyuladi. Sababi 3-4 yoshli bola shu matn vositasida juda muhim boshqa ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi haqida tasavvurga ega emasmiz. Aslida, shu shakldagi rasmi asarlar bolalarda narsa va hodisalarni tanish, tushunish, maundagi ma’lumotlarni anglash kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Tafakkurni charxlaydi. Ishoning, mutolaa orqali shakllanadigan tahliliy, tanqidiy tafakkurni boshqa biror fan bera olmaydi.

Shunday ekan, bolalar adabiyoti faqat ravon o‘qish, badiiy asardan zavqlanish va undan hikmat izlashdan iborat emasligini anglab olishimiz shart. Biz bolalar kitobxonligi ularning kelajagi uchun xuddi suv va havodək

hayotiy zarurat ekanini tushunib yetsak, o‘zimiz bilmagan holda bolalar adabiyoti rivojiga ham hissa qo‘sha boshlaymiz.

To‘g‘ri, davlat darajasidagi islohotlar, dasturlar kerak, ammo odamning o‘zi ham istasa, hammasini anglab yeta oladi. Ba’zi narsalarni, masalan, mutolaaning kuchini odam yolg‘iz his qilishi kerak. So‘zning mas’uliyati, quvvatini o‘z ruhoniyatida akslantirsa, odatiy yumushlaridan biriga aylantirsagina, chinakam kitobxon jamiyatga aylanamiz.

Biz parvoyimizga ham keltirmaydigan holatlar yig‘ilib-yig‘ilib, o‘zimizning ustimizga gurzidek tushadi. Hatto bolasini kitob olishdan qaytargan onalarni ham ko‘rdim. Ba’zi oilalarda ota-ona umuman kitob o‘qimaydi. Bolaga shunchaki kitob berib qo‘yish naf bermaydi, ular bilan birga o‘qish kerak. Sahna asarlari tarzida rol ijro qilib berib, hatto eng ko‘rimsiz kitobga ham bolani qiziqtirish mumkin.

Yoshligimda kitob do‘koniga kirib, pulim yetmagan kitoblarni o‘sha yerning o‘zida o‘qirdim. Uyimizdagi javonda kitoblar yoshimizga moslab terib qo‘yilardi. Dadam qaysi viloyatga borsa, o‘sha yerdan kitob olib, telefonida kitobdan parcha o‘qib berardi. Safardan qaytguncha intiqib kutardim. Hozir o‘zbeklar dunyoga tarqalib ketdi. Nega endi o‘sha yerdan kitob sotib olib, uyiga jo‘natmaydi, nega jo‘natgan pulidan kitob olib berishni aytmaydi? To‘yga, uyiga, mashinaga pul yetadi, lekin bolaning o‘qishi uchun ajratilmaydi.

Kitob bolaga nasihat qilishi kerak emas!

Sa’dulla QURONOV,
bolalar yozuvchisi:

— Bolalar adabiyotini kattalar adabiyoti kabi she’riy hamda nasriy asarlar tashkil etishi hammamizga ma’lum. Buni eslab o‘tganimning sababi bizdagi muammolar, aniqrog‘i, bo’shliqlar faqat bolalar uchun atalgan nasriy asarlarda deb o‘ylayman. Boisi, bolalar adabiyotidagi she’riyatning ramziy silsilasi — tashuvchi g‘oyasi, maqsadi, merosi har davr ruhiga xos tarzda yangilanib, moslashib kelgan.



Bir oz qo‘pol qilib aytganda, bir avlod bolalar shoiri keksayib, qo‘liga qalam og‘irlik qilgan paytda boshqa bir zabardast shoir yetishib kelishga ulguragan. Bolalar nasri borasida esa bunday deb bo‘lmaydi. Ayrim omillar buni tan olishga majbur qiladi. Masalan, bolalar adabiyotining yirik namoyandasi, xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning oramizda yo‘qligi shu bo’shliqning ko‘lamini yaqqol ko‘rsatib berdi. Bu adibdan so‘ng boshqa hech kim mutolaa zavqini endi tuya boshlagan bola uchun o‘z davriga mos axloqiy tushunchalarni sodda tilda tushuntirib berishdek mushkul vazifani to‘liq uddalay olmadi. Bu yo‘lda faqat turli tajribalar guvohi bo‘ldik, xolos.

O‘rta asrlardagi mumtoz she’riyatimiz butun boshli adabiyotimizda asosiy ulushga ega. (Bunga sabab, ehtimol, adabiy genimizda she’riyat ko‘proq saqlanib qolgani bo‘lsa kerak). G‘arbda esa ayni shu pallalarda roman, dramaturgiyaning turfa shakllari rivoj topdi. Ilk nasriy urinishlar hosilasi bizda atigi bir yarim asr ilgari kirib kelgani uchun ham hozir nasr biz kutgan darajaga chiqmayotgan bo‘lish ehtimoli bor.

Adabiy maktablar, ustoz-shogird an’analari yo‘qolib ketayotgani ham katta sabablardan biri deb o‘ylayman. Ilgari tahririyatlarda, gazeta-jurnallarda adabiyot darg‘alari bilan birga ishlaydigan yoshlar tahliliy ravishda iste’dodini shakllantirib, unga sayqal berib borgan. Jarayon ortiqcha shovqinsiz, urinishlarsiz, ustozning umri mobaynida anglab yetgan falsafasi va shogirdning ishtiyoqi evaziga qaynardi. Hozir biror havaskor qalamkash qaysidir tahririyat eshigini qoqib, maslahat so‘rab keladi

deysizmi? Yo‘q. Bor bo‘lsa ham barmoq bilan sanarli.

Bundan tashqari, biz o‘z qahramonimizni yo‘qotib qo‘ydik. Topa olmadi, yaratma olmadi emas, aynan yo‘qotib qo‘ydik. E’tibor bermadik. Natijada bugungi bolalarning aksari Alpomish, Kuntug‘mish, Ravshanxon, Rustamxonning alplarga xos xatti-harakatiga ishonqiramay, bo‘rtirilgan deb o‘ylab, allaqaysi hasharotning qobiliyatini o‘zida mujassamlashtirgan “super” odamga hayrat ko‘zi bilan boqmoqda. Shunday bo‘lishi tabiiy. Chunki biz o‘z qahramonlarimizni zamonga moslashga, raqamlashtirishga harakat qilib ko‘rmadik. E’tiborni esa “komiks”lar, “manga”lar ilib ketdi. Bu bilan komikslarni yomonlashdan yiroqman, ularning ham o‘ziga yarasha vazifasi bor. O‘smirlar dunyoqarashi, savvuri shakllanishida, tan olaylik, bugun aynan shular ta’sir ko‘rsatdi. Biz ham shunday ommalashtirak bo‘lardi demogchiman. Buning uchun bizda hammasi bor edi: tugal g‘oya, aniq falsafa, mukammal syujet chizig‘i... Bu taklifni biryozlama tushunmaslik kerak. Bizga qahramon kerak, ammo benuqsun, biz hayotda hech qachon uchratmaydigan sifatga ega, insondan ham kattaroq mavjudot emas,

“

— Bugungi o‘zbek bolalar adabiyotidagi oqsashlar umumiy tizimga borib taqaladi. Bizda kitob va noshirlik sanoati rivojlanayotgandek ko‘ringani bilan, aslida, hamma bir yo‘ldan boryapti. Bolalarbop asarlar juda kam bosilyapti, chop etilgani ham ommalashayotgani yo‘q.

aynan o‘zimizga o‘xshagan, biz kabi ozgina maishiy muammolarga o‘ralashgan, ba’zi holatlarda xato qaror qabul qiladigan va undan xulosa chiqaradigan, kechiradigan, kechirim so‘raydigan, o‘rganadigan, o‘rgatadigan, o‘zligidan, o‘zbekligidan uyalmaydigan haqiqiy qahramon kerak.

Bu voqeani oldin ham aytgandim. Adabiy uchrashuvda bir ayol menga savol bergandi: “Nega qahramonlaringiz taqdiri bu qadar to‘kis, nega zig‘ircha bo‘lsa ham iztirob, ayiriliq yo‘q? Axir hayot unday emas-ku?!” Ayolning savoli meni dovdiratib qo‘ygan. Javobim yo‘q edi. Shunchaki bilmasdim, rostdan o‘ylab ko‘rmagan edim.

Keyinroq chet el bolalar yozuvchilarining suhbatini tingladim. Unda eri to‘satdan vafot etib, uch farzandi bilan beva qolgan yozuvchi ayol qismati haqida so‘z bordi. Ayol o‘zi va farzandlarini tushkunlikdan chiqarish uchun otasi vafot etgan qahramon hayoti haqida asar yozadi. Kutilmaganda bu asar bestsellerga aylanadi.

Suhbatni tinglarkanman, ko‘z oldimga o‘sha — menga savol bergan ayol keldi. Hoynahoy uning farzandlari ham ayрилиq alaminini totib ko‘rgan. Mening ideal turmush haqidagi asarim esa ularning ruhiyatiga aks ta’sir ko‘rsatgandir... Shu-shu bolalar asarlarining mavzusi haqida ko‘p bosh qotiradigan bo‘ldim. O‘ylab qarasam, bizning bolalar adabiyoti hali ham u qadar ijtimoiylashmagan. Hamon ertak va dostonlardagi ideal taqdir va qahramonlarning ta’siri kuchli. Hayotiy, maishiy muammolar haqida yozishga esa ko‘p ham urinmaymiz, go‘yo bu adabiyot emas.

Adabiyotni ideallashtirganimiz sababi biz, deylik, puli yo‘qligi uchun tushlik qila olmaydigan yoki tilida nuqsoni bor bolalarning kechmishi haqida deyarli yozmaymiz. Biz uchun adabiyot katta narsalar, g‘oyalarga haqida kuylashi zarur, tamom. To‘g‘ri, shunday bo‘lishi lozim, ammo insoniylik doim birinchi o‘rinda turadi. Insonparvarlik orqali shu g‘oya singdirilsa, qanday go‘zal!

Menimcha, o‘zbek bolalar adabiyoti trendga chiqa olmasligining asosiy sabablaridan biri mavzularning hayotiy emasligi bilan bog‘liq.

“

MENIMCHA, O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TRENDGA CHIQA OLMASLIGINING ASOSIY SABABLARIDAN BIRI MAVZULARNING HAYOTIY EMASLIGI BILAN BOG‘LIQ.

“Komiks”lar, “softbuk”lar kabi zamonaviy ko‘rinishdagi kitoblar juda zarur!

Shohrux USMONOV,
tarjimon:

— Bugungi o‘zbek bolalar adabiyotidagi oqsashlar umumiy tizimga borib taqaladi. Bizda kitob va noshirlik sanoati rivojlanayotgandek ko‘ringani bilan, aslida, hamma bir yo‘ldan boryapti. Bolalarbop asarlar juda kam bosilyapti, chop etilgani ham ommalashayotgani yo‘q. Deylik, oxirgi bir-ikkki yilda “Atom odatlar” kitobini sotib olmagani kitobxon qolmadiki shekilli. Lekin bolalar uchun yozilgan qaysi asar bir necha o‘n minglab adadda chop etilib, qayta-qayta sotilmoqda? Kreativ iqtisodiyotni rivojlantiradigan, ayniqsa, bolalar kitoblari uchun PR va marketingni kuchaytiradigan payt keldi.



Oddiygina yosh kategoriyasi kabi talablarga javob berishni o‘rganishimiz zarur. Bozorlarimizda har bir yosh kategoriyasiga mos keladigan kitoblar yo‘q. Axir 6 yoshli bolaga ham, 13 yoshli o‘smirga ham “Sariq devni minib”ni tutqazavermaymiz-ku. Masalan, 3 yoshgacha bolalar uchun kitobdagi so‘z 100 tadan oshmasligi shart. Ba’zan kitob matn emas, suratlardan iborat bo‘lishi ham mumkin. 3-8 yoshlilar uchun 250-1000 ta so‘zdan oshmagani asar talab etiladi. Bunda ham matndan ko‘ra surat “so‘zlashi”ga ko‘proq urg‘u qaratiladi. 5-9 yoshdagilar “ilk kitobxon” sanalib, ularga atalgani 1500-2000 ta so‘z, 6-10 yosh uchun 8,5-12 mingta so‘z bo‘lishi kerak. 8-12 yosh orasidagilarga 25-50 mingta so‘zdan iborat asar yoziladi odatda. G‘ij-g‘ij matn bilan bolani kitobga qiziqitirib bo‘lmaydi. Bizda yosh kategoriyalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi? Hozircha muallif yoki muharrirning shaxsiy qarichidan boshqa mezon yo‘q.

Aslida, bularni belgilash uchun tilshunoslar tadqiqot o‘tkazishi, gap va matn qurilishining murakkabligini, so‘z ma’nolarini tushunish

darajasini turli yoshdagi bolalarda tajribadan o‘tkazishi kerak. Xorijda bularning barchasi ishlab chiqilgan. So‘nggi vaqtlarda zamonaviy o‘zbek tilshunolari orasida ham bu borada dastlabki tadqiqotlar o‘tkazildi, biroq bu juda-juda oz. Xullas, shunday tadqiqot natijalari asosida maxsus dastur yaratiladi. Matn shu dasturga joylanganida uning o‘qishlilik darajasi, yosh kategoriyasiga doir tahlillar chiqib keladi.

Janubiy Koreyada yashab, ijod qilayotgan Dinara Mo‘minova degan bolalar yozuvchisi bor. Kichik yoshdagi bolalar uchun rasmiy kitoblar tayyorladi, 3-5 yoshli bolalar uchun birinchi bo‘lib kitoblar yozdi. Yaqin yillarda Erkin Malikning “Chumolilar mamlakati” kitobi, Qobiljon Shermatovning “Bobomning oshqozonidagi mamlakat” kitobi chiqdi. Sa’dulla Quronov ilmiy fantastika janrida yozadi. Chunki o‘zbek adabiyotida mazkur yo‘nalish oqsayapti. Ilmiy fantastikada voqealar ilm-fan bilan asoslanadi. Bolalar fan haqida bilimga ham ega bo‘ladi. Hammasi uchun quvonsak arziydi, biroq bular yetarli emas. Tushunishimiz shart, 20-30 yildan

keyin qanaqa avlod shakllanishi bugungi bolalar adabiyotining ahvoriga bog‘liq. Sifatli kitoblarni o‘qib ulg‘aygan bola ertaga, hech shubhasiz, ziyoli qatlamning vakili, ta’bir joiz bo‘lsa, peshqadam bo‘lib yetishadi. Buni inkor etish imkonsiz.

Negadir biz har qanday yangilikka xavfsirab qaraymiz. Bir zamonlar oddiygina “sel’f”ni ham xavfli deb jar solganmiz. Ammo kitobdan, adabiyotdan biror xavf kutish bir oz kulgili. “Komiks”lar, “manga”lar, “softbuk”lar, pop-ap, AR va hokazo zamonaviy ko‘rinishdagi kitoblar bugun juda zarur. Bola kitobni ham o‘qib, ham o‘ynab, ham tomosha qilib zavq olganiga nima yetsin!

Bolalar adabiyotini rivojlantirish uchun har kim har xil yechim taklif qiladi. Men tarjimonman, shundan kelib chiqqan holda ayta olamanki, jahon bolalar adabiyoti durdonalarini paysalga solmasdan tarjima qilish shart. Masalan, bizning bolalar ham Roald Dal, Astrid Lindgren, Tuve Yansson, Doktor Syus, Mibel Mompurgo, David Uol-yans, Arnold Lobel kabi dunyo tan olgan adiblarning bir-biridan go‘zal asarlaridan bahramand bo‘lishi kerak. Buning uchun bolalar adabiyoti ommalashuvi yo‘lda yeng shimarishga tayyor tarjimon, muharrir va noshirlarga har doimgidan ham ko‘proq ehtiyoj sezamiz.

O‘zbek bolalariga “Sariq devni minib”, “Shirin qovunlar mamlakati”, “Dahshatli Meshpolvon”, “Olovjon va uning do‘stlari” va xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan birga bugungi kun voqeeligiga mos zamonaviy asarlar kerak. Mayli, bolangiz turli onlayn manbalarga, redbuklarga ham, kitobga ham birdek mehr qo‘yib ulg‘aysin, ikkisiga ham bee’tibor bo‘lgandan shunisi xayrliroq-ku, to‘g‘rimi?

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetlari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
37560 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Offset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi qilish: Nodir Mahmudov
Musahih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

O‘za yakuni — 23:20 Topshirildi — 23:25